

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

JAHON SIYOSATI VA TARIX fakulteti

JAHON SIYOSATI kafedrası

**MISR ARAB RESPUBLIKASINING JAHON SIYOSATIDAGI
TUTGAN O‘RNI**

Tojiddinov Iskandar Bahodir o‘ g‘ li

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5120700 – JAHON SIYOSATI

Ilmiy rahbar: Yovqochev SH.A.

Toshkent - 2014

Mundarija

Bet

KIRISH.....	3
1 – BOB. XALQARO MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI.....	9
1.1. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar subyektlarining tashqi siyosatini tadqiq etish masalalari.....	9
1.2. Tashqi siyosat tushunchasiga doir nazariy yondashuvlar.....	17
2 – BOB. XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MISR ARAB RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING RIVOJLANISH.....	25
2.1. Misrda davlat va diniy institutlarning rivojlanishi.....	25
2.2. Misr Arab Respublikasi tashqi siyosatining 2011 yilga qadar asosiy yo'nalishlari.....	32
3 – BOB. HOZIRGI XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MISR ARAB RESPUBLIKASINING O'Z O'RNIGA EGA BO'LISHIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	43
3.1. “Arab bahori” va Misr Arab Respublikasi tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng o'zgarishi.....	43
3.2. Hozirgi Misr Arab Respublikasining jahon siyosatidagi o'rni	50
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi davr xalqaro taraqqiyotida Yaqin Sharqda yuzaga kelgan vaziyat, shuningdek, uni bevosita belgilovchi omillar haqidagi mavzu eng dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda Yaqin sharq mintaqasidagi vaziyatga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar mavjud. Keyingi yillarda Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-harbiy vaziyatga ma'lum darajada salbiy ta'sir etib, ayni paytda tadqiq etayotgan mintaqadagi yetakchi davlatlardan hisoblangan Misr Arab Respublikasida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilanishlar yo'lidagi islohotlarning rivojiga to'siq bo'layotgan ayrim muammolar ham bor.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimida davatlarning o'rnini, ularning olib borgan tashqi siyosati har doim dolzarbligi jihatidan birinchi darajadagi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda shubhasizki, davlatlar tashqi siyosatini o'z milliy manfaatlarini ta'minlash va o'zining yashab qolish uchun muhim bo'lgan hayotiy manfaatlarini ta'minlashga yo'naltiradi. Shu bilan bir qatorda davlatlar tashqi siyosatida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlamay turib jahondagi xavfsizlikka, barqarorlik va tinchlikka erishib bo'lmaydi.

Tadqiq etilayotgan Misr Arab Respublikasining jahon arenasida o'z o'rnini ta'minlash orqali mintaqada joylashgan davlatlarning turli sohalardagi barqaror taraqqiyotiga, bu hududda yashovchi xalqlarning ijtimoiy farovonligiga va tinchligiga erishish mumkin.

Malakaviy ish mavzusining aynan Misr Arab Respublikasining mintaq va jahondagi o'rnini ta'minlash masalalariga oidligi yuqoridagi o'ta muhim omillar bilan bog'liq.

Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligiga solinayotgan tahdidlar asosan Arab – Isroil mojarolarini hal etish, shuningdek, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm muammolarida ifodalanadi.

Islom Karimov xavfsizlikka solinayotgan tahdidlarni oldini olish, bartaraf etish, barqarorlik va tinchlikni ta'minlash uchun juda puxta o'ylab, ishlab chiqilgan tashabbuslarni ilgari surib, bu boradagi zarur sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda.

Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning havfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch – osoishta hayotni saqlash kabi bir – biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir¹.

Xalqaro munosabatlar tizimida muhim geostrategik o'rin egallaydigan Yaqin Sharq mintaqasida Misr Arab Respublikasining o'z o'rnini va vazniga ega bo'lishi, xavfsizlik va barqarorlikning ta'minlanishi, jahon miqyosida ham tinchlikning mustahkamlanishiga olib keladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tobora jipslashib, diniy ekstremizm va terrorchilik harakatlari xalqaro ahamiyat kasb etib borayotgan bugungi kunda har qanday mintaqaviy muammolar global xarakter kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan Misr Arab Respublikasining Yaqin Sharq mintaqasida hamda xalqaro darajadagi mavqeini oshirishni ta'minlash masalalarini tadqiq etish va unda arab dunyosida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan MARning o'rnini va roliga baho berish, MARning Yaqin Sharq va Afrikadagi xavfsizlikni ta'minlash siyosatining xususiyatlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi.

Bitiruv malakaviy ishda yoritib berilayotgan Misr Arab Respublikasining hozirgi zamon jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lishini taminlash borasida olib borayotgan tashqi siyosatini ta'minlashdagi va bu borada Misr rahbarlari tomonidan qabul qilinayotgan chora tadbirlarni keng va atroflicha yoritib berishga qaratilgan. XX asr oxiri XXI asr boshida Misrning

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – B.18.

boshqa arab dunyosi davlatlari bilan qanday munosabatlarda bo'lishidan qat'iy nazar, Qohira Yaqin Sharq diplomatiyasining o'ziga hos markazi ya'ni Misr Yaqin Sharqqa kirishda o'ziga hos darvoza bo'lgan. Misr Arab Respublikasining 2011 yilga qadar tashqi siyosati J. A. Nosir, A.Sadat hamda X.Muborakning shaxsiy xarakter, o'ziga hosligi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda keskin ravishda o'zgarib borganligi, X.Muborak davrida MAR tashqi siyosatining asosiy maqsadlari Isroil tomonidan bosib olingan Sinay hududlarini qaytarib olish, Yaqin sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, Arab Davlatlari Ligasiga qaytish hamda unda o'ziga hos o'ringa ega bo'lish, arab dunyosi va Afrika mintaqasi davlatlari bilan keng iqtisodiy – savdo va harbiy – siyosiy aloqalarga kirishish eng ustuvor yo'nalishi Albatta, mamlakatimizdagi ko'plab Sharqshunos olimlar Yaqin Sharq mintaqasi, Fors ko'rfazi davlatlarining siyosiy – ijtimoiy, iqtisodiy va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi yutuqlarini o'z tadqiqotlarida keng yoritib berganlar. Bulardan, Sh.Yovqochev, S.Mirqosimov, M.Muxammadsidiqov, Z.Munavvarov, R.Qodirov, A.Haydarov, S.G'afurov, I.Ergashev, R.Farmonov, S.Jo'rayev, G.I.Yo'ldosheva, B.G'iyosov, S.Inog'omov, R.Qosimov, R.Tursunov va S.Jo'raev, S.Sharapova, N.Karimovalarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin¹.

Shu bilan bir qatorda MARning hozirgi zamon jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimidagi o'z o'rniga ega bo'lishida olib borayotgan tashqi siyosati, mintaq xavfsizligini ta'minlashdagi va bu orqali Yaqin Sharqda tinchlik hamda

¹ Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. Ш.Ёвкочев. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – С. 212.; Миср Араб Республикасида: давлат ва диний институтлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қуриш академияси. – Тошкент.: 2007. – 36. б.; Мирқосимов С., Раҳимова М. Дипломатик ва консуллик хизмати: саволлар ва жавоблар. – Т.: Академия. 2009. – Б. 7.; Муҳаммадсидиқов М.М. Замонавий халқаро муносабатларда Африка давлатлари: сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий жараёнлар. – Т.: Тошкент Ислам университети., 2013.-268 б.; Мунавваров З.И. Страны Аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях XX века. Дис.док.полит.наук. Т.: 1997. – С.256.; Қодиров Р. Ўзбекистан и арабский мир: перспективы сотрудничества. Т.: Фан, 1997. – С.157.; Хайдаров А. Арабистон ярим ороли мамлакатлари. Т.: Фан. 1994. Гафуров С.М. Форс Қўрфазини араб давлатлари ва Ўзбекистон Республикасининг минтақавий ва умумжаҳон хавфсизлигини таъминлашдаги маънавияти.// сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: - 2002.; Эргашев И., Фармонов Р., Хабибуллаева Д. ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Дарслик. Т.: Наврўз нашриёти, 2005й. – Б. 35.; Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. Т.: Академия. 2007. – Б. 287.; Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспекти. – Т.:Математика ва ахборот технологиялар институти босмахонаси, 2009. – 249 б.; Иноғомов С. Саудия Арабистони Подшоҳлиги. Т.: Фан, 1998, – Б. 36.; Шарапова С., Каримова Н., Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран востока и запада. – Т.: Фан. 2006. – 297 б.

M.Mursi Misrning muqaddam juda ham tor tashqi siyosiy yo'nalishidan (Aqsh va G'arbiy Yevropa) voz kechib, xalqaro munosabatlarning turli aktorlari bilan o'zaro manfaatdor aloqalarni yo'lga qo'yishga intilgan va bunda Mursining BRIKS davlatlari, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Saudiya Arabistoniga tashrifi masalasi rus olimlari: E.Fazelyanov, A.Z.Yegorin, S.A.Lantsova, V.A.Achkasova, K.Chermenix, E.N.Panfilenko, A.G.Baklanove, B.G.Seyranyan, A.M.Vasilyev, B.E.Titorenko, V.I.Gusarov, A.Rifaat, B.E.Donsov, I.Moxova, V.P.Yurchenko va boshqa kabi olimlar tomonidan keng va atroflicha o'rganilgan¹.

Misr Arab Respublikasining jahon siyosatidagi o'z o'rni va roliga ega bo'lishi va bunda mamlakatning qiyin tarixiy jarayonlarni bosib o'tganligini tadqiq etgan g'arb maktabi vakillari D.Schenker, A.Said Aly, L.Cantori, Artur Goldschmidt, P.J.Vatikiotis, M.Hudson, R.Dal, G.Almond, D.Iston, V.Gelman, Z.Bjezinskiy asrlari tashkil etadi².

Bu olimlarning ilmiy tadqiqotlari va oxirgi yillarda olib borgan izlanishlari hozirgi davr Misr Arab Respublikasidagi davlat va diniy institutlarning o'zaro aloqalari, MAR tashqi siyosatining turli davrlardagi asosiy yo'nalishlari va ularning prinsiplari, Arab bahori va uning fors ko'rfazi neft mamlakatlarining taraqqiyoti va Afrika davlatlarining kompleks sohalariga ta'siri, Yaqin Sharq

¹ Фазельянов Э. Вода как фактор мира и стабильности. Проблемы Нила в зеркале международного права // Азия и Африка сегодня. 1999. № 11, – 104 с.; Егорин А.З. Египет нашего времени. – М.: ИВ РАН, 1998. – 280 с.; Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. С.А.Ланцова, В.А.Ачкасова. – СПб.: Питер, 2007. – 373 с.; Панфиленко Э.Н. Некоторые аспекты судано – египетских отношений.//Арабский мир в конце XX века. М. 1996г. – 274 с.; Сейранян Б.Г. Хосни Мубарак. Начало политической деятельности. – М.: 1997. – 292 с.; Титоренко В.Е. Формирование внешней политики Египта после Г.А. Насера (1970 - 1993 гг.). – М.: 1994. – 198 с.; Рифаат А. Экономическая политика и сдвиги в промышленном производстве (на примере ряда арабских стран) // Ближний Восток и современность. Вып. 13. – М.: ИИИиБВ, 2002. – 209 с.; Юрченко В.П. Египет: проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.) – М., 2003, – 208 с.

² Schenker D. Egypt's Enduring Challenges // Policy Focus. April 2011. – P. 15.; Said Aly A. An Ambivalent Alliance - the Future of U.S - Egyptian Relations // Analysis Paper. January 2006. № 9. – P. 28.; Cantori L. Arab Republic of Egypt // Delury G.E. (Ed.) World Encyclopedia of Political Systems and Parties. – 2nd edition. – Vol. I (Afghanistan – Luxemburg). – New York (U.S.A.), Oxford (England): Facts on File Publications, 1987. – 313 p.; Arthur Goldschmidt Jr. Modern Egypt. The Formation of a Nation State. – N.Y.: Westview Press, 2004. – 175 p. Vatikiotis P.J. The Middle East. From the end of Empire to end of Cold War. – London and New York, Routledge, 1997. – P. 119.; Hudson M. After the Gulf War: Prospects for Democratization in the Arab World // The Middle East Journal, 15, no.1. – Summer 1991. – P. 407 – 426.; Даль Р. О демократии / Р. Даль. М. : Аспект Пресс, 2000. - 208 с.; Алмонд Г. и др. Сравнительная политология сегодня. Мировой обзор. М., 2002.; Gel'man V. Out of the Frying Pan, Into the Fire? Post-Soviet Regime Changes in Comparative Perspective // International Political Science Review. 2008. Vol.29. №2. – P. 157-180.; Brzezinski Z. The Great Transformation / Z. Brzezinski // The National Interest. 1993. -№ 33. – P. 2-11.

mintaqasidagi oxirgi vaziyatlar va mintaqa davlatlarining O‘zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik aloqalari istiqbollarini o‘rganishda muhim manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

bilan bir qatorda Misr Arab Respublikasi davlat boshqaruviga M.Mursining kelishi davlat tashqi siyosatida turli tashqi siyosiy vektorlarni vujudga keltirganligi.

Misr Arab Respublikasining hozirgi xalqaro munosabatlarning muhim aktori va xalqaro huquq subyekti sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida quyidagi to‘siqlar mavjudligi ham atroflicha o‘rganildi:

Birinchidan, Misr sobiq prezidenti M.Mursining juda qo‘pol ravishda egallab turgan lavozimidan chetlatilishi ko‘plab xalqaro aktorlar tomonidan qoralanmoqda va hattoki mazkur holat tufayli ayrim davlatlar Misrga nisbatan turli cheklov, sanksiyalarni amalda qo‘llashmoqda.

Ikkinchidan, bugungi kunda vaqtinchalik hukumatning terroristik harakat sifatida tan olingan “Musulmon birodarlari”ning qatl etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa qator davlatlar tomonidan keskin qabul qilindi. Xususan, 2014 yilning 28 aprel oyida Misr sudi 683 “Musulmon birodarlari” harakatining vakillarini o‘lim jazosiga mahkum etgan edi.

Uchinchidan, mamlakatdagi kompleks ijtimoiy – iqtisodiy, harbiy – siyosiy va xavfsizlik sohasidagi tizimning buzilganligi natijasida Misrning Sinay hududi va mamlakatning boshqa ichki hududlarida turli harakatlarning faollashuvi.

To‘rtinchidan, Misr Arab Respublikasining zaiflashuvi boshqa davlatlarning mazkur mintaqaga kirib kelishi va ushbu mintaqada o‘z pozitsiyalarini mustahkamlab olish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Misr Arab Respublikasi mintaqaviy va global darajada o‘z o‘rni hamda mavqeini saqlab qolishi uchun yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish, mavjud muammolarni siyosiy yo‘l va vositalar orqali hal etishi lozimligi chuqur o‘rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishdan asosiy maqsad Misr Arab Respublikasining hozirgi zamon jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lishini taminlash

borasida olib borayotgan tashqi siyosati va Misr rahbarlari tomonidan qabul qilinayotgan chora tadbirlarni keng va atroflicha yoritib berishdan iborat.

Malakaviy ishning maqsadiga kerakli darajada erishish uchun quyidagilar tadqiqotning vazifalari qilib olingan:

- Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar subyektlarining tashqi siyosatini tadqiq etish masalalari
- Tashqi siyosat tushunchasiga doir nazariy yondashuvlar
- Misrda davlat va diniy institutlarning rivojlanishi
- Misr Arab Respublikasi tashqi siyosatining 2011 yilga qadar asosiy yo'nalishlari
- “Arab bahori” va Misr Arab Respublikasi tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng o'zgarishi
- Hozirgi Misr Arab Respublikasining jahon siyosatidagi o'rni va arab davlatlari bilan o'zaro munosabatlari

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Misr Arab Respublikasining hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lishidagi olib borayotgan faol tashqi siyosatini asosiy yo'nalishlarini kelib chiqish sababi va oqibatini aniqlashdir.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Misr Arab Respublikasining Jamol Abdul Nosir, A.Sadat va X.Muborak davrlarida davlat tashqi siyosatining qay yo'nalishda o'zgarib borganligi va uning qanday oqibatlarga olib kelganligini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, I.A.Karimov asarlari va shu bilan bir qatorda Misr Arab Respublikasining jahon siyosatidagi o'rni bo'yicha yozilgan milliy hamda xorijiy mutaxassislarning dissertatsiyalari, kitob va maqolalari tashkil etadi. Ishning metodologik asosini esa ob'ektivlik, haqqoniylik, holislik, har tomonlamalik hamda tarixiylik singari tamoyillar tashkil etadi.

Malakaviy ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish qismi, 3 bob va 6 paragraf, Xulosa qismi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1 – BOB XALQARO MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar subyektlarining tashqi siyosatini tadqiq etish masalalari

Insoniyat jamiyatida davlatlar paydo bo'libdiki, ular o'rtasida u yoki bu darajada siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilgan. Dastlabki davlatlar Misr, Mesopatamiya, Elam, Hindiston va Xitoyda bundan 3.5 – 5 ming yillar muqaddam vujudga kelgan. Huddi mana shu davrlardan boshlab davlatlarning bir – biri bilan tashqi aloqalari yo'lga qo'yila boshlagan. Keyinchalik asrlar o'tishi davomida davlatlarning rivojlanishi bilan bir qatorda ular o'rtasidagi aloqalar ham parallell ravishda murakkablashib borgan.

Davlatlarning tashqi siyosati obyektiv siyosiy jarayon hisoblanadi. Har bir davlat boshqa bir davlat bilan u yoki bu darajada aloqalarga kirishmasdan yoki o'zaro munosabatlar o'rnatmasdan turib samarali rivojlana olmaydi. Tashqi siyosatning asosiy vazifasi davlatning iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyoti, xavfsizligi hamda davlat va uning fuqarolari huquqi va manfaatlarini chet ellarda himoya qilishini ta'minlovchi muhitni barpo etishdir¹. Davlatlarning o'zaro munosabatlari va aloqalari qay darajada olib borilishi jarayoni xalqaro munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradi.

Tashqi siyosat – bu muayyan bir davlatning jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimidagi faoliyati hisoblanadi. U bir davlatning boshqa davlatlar va xalqlar bilan o'zaro aloqalarini o'zining prinsiplari va vazifalariga ko'ra turli metodlar hamda usullar orqali tartibga soladi. Tashqi siyosatning vujudga kelishi mazkur davlat obyektiv talablarining paydo bo'lishi yoki o'zga davlatlar bilan

¹ Мирқосимов С., Рахимова М. Дипломатик ва консуллик хизмати: саволлар ва жавоблар. – Т.: Академия, 2009. – Б. 7.

aloqalar o'rnatish jarayoni bilan bog'liq. Shu sababli ham tashqi siyosat ichki siyosatga nisbatan keyin vujudga keladi¹.

Tashqi siyosat – davlat siyosiy institutlarining xalqaro darajada o'zining manfaatlari va ehtiyojlarini hamda o'zaro manfaatlar uyg'unligini amalga oshirish bo'yicha faoliyatidir. U davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish, xalqaro tashkilotlar qoshida vakolatxonalar ochish yoki unga a'zo bo'lish, turli darajalarda o'zaro aloqalar o'rnatish shakllarida amalga oshirilib boriladi.

Tashqi siyosatning zarurligini har bir davlatning ehtiyojlari taqazo etadi. Ehtiyojlar, avvalo, har bir mamlakatning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi. Har bir davlat o'zining tashqi siyosatida boshqa davlatning manfaatlarini ustun qo'ymaydi va bunga intilmaydi. Bu borada Prezidentimiz I. Karimov “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” nomli asarida: “Davlatimiz tashqi siyosatining ma'no – mazmuni va maqsadi bitta u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir”² deb ta'kidlaydi.

Tashqi siyosat – davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni xalqaro miqyosda jahon maydonida tartibga solib boshqarib turishini anglatadi.

Ichki siyosat kabi tashqi siyosat ham o'zgaruvchan xususiyatga egadir. Shunga ko'ra barcha davlatlar uchun bir xildagi siyosatni ishlab chiqish va olib borish mumkin emas. Qadimgi quldorlik va feodal davlatlari davrida tashqi siyosiy munosabatlar muammolari bilan shug'ullangan mutafakkirlar hamda siyosiy va davlat arboblari ko'p bo'lgan. Masalan, qadimiy Misr, Vavilon, Ossuriya, Midiya davlatlarida – kohinlar, Yunonistonda – arxond, demagog, strateg, notiq, faylasuflar, Rimda senatorlar, tribunlar, imperatorlar, O'rta Osiyo hududidagi davlatlarda – vazirlar, muftiylar, munajjimlar kabi amaldorlar, kasb egalari tashqi siyosatning yo'nalishlarini ishlab chiqqanlar hamda amaliy tavsiyalar taklif etganlar.

¹ Общая и прикладная политология: Учебное пособие. / Под общей редакцией В.И. Жукова, Б.И. Краснова. – М.: МГСУ; Изд-во Союз, 1997. – С. 165.

² Каримов.И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Т.17. – Т.:Ўзбекистон. 2005 й. – Б. 5.

Tarix shundan dalolat beradiki, yer yuzida keyingi 5 yarim ming yilning atigi 300 yiliga tinch va osoyishta o'tgan. Qolgan vaqtlarda 15 mingdan ortiq urushlar bo'lib o'tgan. Bu urushlar birgina Yevropada XVII asrda 3 milion, XVIII asrda 5 miliondan ko'proq, XIX asrda 6 milion, XX asrda esa 70 miliondan ortiq kishining hayotiga zomin bo'lgan¹.

Xalqaro siyosiy munosabatlarda amal qiladigan tamoyillar dastlab 1915 yilda bo'lib o'tgan Vena Kongressi, keyinchalik esa, 1919 yilda tuzilgan. Millatlar Ittifoqining hujjatlarida umumiy tarzda ifodalab berilgan edi.

Bular quyidagilardan iborat:

- davlatlarning suveren tengligini hurmat qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik;
- tinch – totuv yashash siyosatiga og'ishmay amal qilish;
- xalqaro kelishmovchiliklarni siyosiy yo'l bilan hal etish;
- davlatlar chegarasining daxlsizligi va hududning bir butunligini tan olish;
- inson huquqlarini hurmat qilish;
- millatlar va elatlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash;
- xalqaro majburiyatlarga vijdonan amal qilish².

Bu tamoyillar ayrim mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qisqa bir vaqt oralig'ida o'ylab topilgan bo'lmay, uzoq yillar davomida xalqaro munosabatlar sohasida ob'ektiv ravishda shakllangan. Bularga amal qilmaslik alohida olingan mamlakatlarni xalqaro hamjamiyatdan butunlay ajralib qolishiga olib keladi. Buning to'g'riligini yana bir bor Respublikamiz Prezidenti I. Karimov o'zining “O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” nomli ma'ruzasida “Davlatlararo munosabatlar sohasida yagona g'oyaga amal qilish lozim. Bu g'oyaning ma'nosi shuki, birgalikda tinch hayot kechirish, hamkorlikka intilish, suveren davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik,

¹ S.Otamurodov va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma, – T.: 1999 y. – B. 179.

² Дипломатический словарь. — М.: Государственное издательство политической литературы. А. Я. Вышинский, С. А. Лозовский. 1948. // http://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_diplomatic/311/ВЕНСКИЙ. – 18.12.20013.

turli nuqtai nazar va fikrlarga bardoshli bo'lish tamoyillarini o'zida aks ettirgan qonunlar ustuvorlik kasb etishi darkor"¹ deb ta'kidlaydi.

Davlatlar tomonidan olib boriladigan tashqi siyosatning samarali bo'lishi ko'p jihatdan davlatlarning tashqi siyosati sohasida amal qiladigan tamoyillarda aks etadi. Yuqorida sanab ko'rsatilgan tamoyillardan tashqari davlatlar tashqi siyosatining ishonchli bo'lishida g'oyaviy muxoliflikdan voz kechish tamoyiliga amal qilish ham muhim ahamiyatga egadir. Xususan, Prezidentimiz Islom Karimovning " Pirovard maqsadimiz – ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir"² deb ta'kidlagan.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar masalalariga doir muammolarni hal qilish ishida faollik ko'rsatish tamoyili davlatlar tashqi siyosatida muhim o'rin egallaydi. Hozirgi bosqichda Davlatlar tashqi siyosatining asosiy y'onalishlaridan biri tinchlik va xavfsizlik uchun kurashdan iborat.

Tashqi siyosat yuritishning quyidagi turlari mavjud:

- Agressiv siyosat – bu tashqi siyosat davlat ichki muammolarini hal etish hamda o'z ta'sir doiralarini kengaytirishda tashqi siyosat vositasidan foydalanishda namoyon bo'ladi. Bu kabi yo'lni qo'llaydigan davlatlar asosan agressiv ekspansiya metodlaridan keng foydalanishadi.

- Konservativ siyosat – bu asosan jahon hamjamiyatida oldingi o'z o'rnini yo'qotgan va uni har qanday usul hamda yo'llar orqali saqlab qolishga intilayotga sobiq buyuk davlatlar tomonidan olib boriladi.

- Aktiv siyosat – davlat xalqaro munosabatlarning asosiy subyekti sifatida o'z manfaatlarini himoya qilishi hamda o'z ichki va tashqi ishlarida o'zaro hamjihatlikni ta'minlashda namoyon bo'ladi.

¹ Karimov. I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.3. 1996. – B. 49.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 3.

• Passiv siyosat – bu nisbatan zaif, kam rivojlangan davlatlarga hos bo'lib, ular o'z suverenitetini saqlab qolish maqsadida xalqaro muhitga moslashishga majbur¹.

Tashqi siyosatga hos bo'lgan umumiy aloqadorlikning mohiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, siyosatning qanday kuchlar tomonidan ishlab chiqilishi barcha davlatlarga xos xususiyatdir.

Ikkinchidan, davlatlar tomonidan olib boriladigan tashqi siyosat ma'lum bir maqsadlarga qaratilgan bo'ladi.

Uchinchidan, tashqi siyosatni ishlab chiqishda umumiy qoidalarga amal qilish lozim. Bular, turli sinflar, guruhlar, millatlarning manfaatlarini hisobga olish, davlatning bir butunligini himoya qilish, osoyishtalik.

Tashqi siyosat – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash bo'yicha davlatning faoliyat doirasi va tutgan yo'li. Shuningdek, tashqi siyosat davlatning tashqi siyosat idorasi va boshqa strukturalarining xalqaro maydonda milliy rivojlanishning maqsad va vazifalarini amalga oshirish yo'nalishidagi strategiyasi, taktikasi va aniq qadamlari sifatida ham qabul qilinadi².

Har holda, ushbu masalalar milliy manfaatlarni himoya qilish va ilgari surish bo'yicha davlatning tashqi siyosiy mexanizmi kuch-harakatlari shaklida namoyon bo'ladi va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarida, milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda, tegishli davlatlararo tashkilotlar tuzish va boshqalarda aks etadi.

Yer yuzida davlatlar sonining ko'payishi va rivojlana borishi ular o'rtasidagi munosabatlarning yanada takomillashib borishiga olib keldi. Mamlakatlar o'rtasida hamkorlikning xilma – xil shakllari tashkil topib bordi va ular xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Hamkorlikning bunday shakllari orasida siyosiy hamkorlik munosabatlari ham rivojlandi.

¹ Внешняя политика // <http://all-politologija.ru/ru/vneshnyaya-politika-gosudarstva-kak-otobrazhenie-ego-nacionalnyx-interesov-sushhnost-vidy-nacionalnye-interesy> – 19.02.2014.

² Жўраев С. Замоначий халқаро муносабатлар. Т.: Академия. 2007. – Б. 46.

Xalqaro siyosiy munosabatlarda ro'y bergan o'zgarishlar har bir yangi tarixiy davrda o'z aksini topib keldi. Masalan, XX asrdan XXI asrga o'tish bosqichida dunyoda ikki qutbli siyosiy munosabatlar davri yo'qolib, ko'p qutbli siyosiy munosabatlar davriga o'tilgan bir paytda yashamoqdamiz. Buning ma'nosi shundaki, ilgari yer yuzida bir – biriga tubdan qarama – qarshi kapitalistik va kommunistik ikkita katta siyosiy lagerlar jahon miqyosidagi qarama – qarshiliklarning ikki qutbini tashkil etdi va yer yuzida butun jahon urushining boshlanib ketishiga zamin bo'lib kelar edi. SSSRning parchalanishi, jahon kommunistik tuzumining ham parchalanishiga sharoit tug'dirdi. Bunday sharoitda voqelikka umumjahon sivilizatsiyasi nuqtai – nazaridan sog'lom aql pozitsiyasidan turib qarash davr talabiga aylandi.

Bu borada Prezidentimiz I. Karimov shunday deb yozadi: “Hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama – qarshi qutb barham topgan bo'lsada, turli xil maqsad manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad – inson avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi – tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish”¹.

Undan tashqari, XX asrning so'ngi o'n yilligi dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lganligi va ularning o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritib, kelajakda jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishda mustaqil tashqi siyosat olib borish yo'liga qadam qo'ydi. Ana shunday o'z tashqi siyosatini mustaqil belgilay oladigan davlatlar turli mintaqalarda joylashgan bo'lib, ular Markaziy Yevropaning (5 ta), Boltiqbo'yi davlatlarining (3 ta), Bolgariya va Ruminiya, G'arbiy – Sharqiy Yevropa mamlakatlarining (5 ta), Kavkazorti davlatlaridan (3 ta) va Markaziy Osiya davlatlaridan (5 ta)ni o'z ichiga oladi².

Davlatlar tashqi siyosatining zarurligini xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanish ehtiyojlari ham taqozo etadi. Xalqaro munosabatlarda ro'y beradigan

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.7. 2000 yil. – B. 329 – 330.

² Эргашев И., Фармонов Р., Хабибуллаева Д. ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. Дарслик. Т.: Наврўз нашриёти, 2005й. – Б. 10.

har qanday muammoni hal qilish birinchi navbatda davlatlarning tashqi siyosatiga bog'liqdir. Buning sababi shundaki, davlatlar o'zlarining tashqi siyosiy faoliyati orqali xalqaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatadilar va ularni tartibga solib turishda yetakchi siyosiy kuchlardan biri sifatida faoliyat olib boradi.

Davlatlarning tashqi siyosati va uning amal qilinishiga ichki va tashqi omillar ta'sir etib turadi. Ichki omillar obyektiv va subyektiv hususiyatlarga egadir. Obyektiv hususiyatlarga davlatlarning ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan omillar, subyektivga esa, davlatning siyosiy hayotida faoliyat ko'rsatuvchi turli siyosat subyektlarini kiritish mumkin¹.

Tashqi siyosatga yondashuv – jahon tizimi ishlarini umumiy o'rganishdagina ishonchli va to'liq hisoblanadi. Masalan de Meskvita “Xalqaro siyosat prinsiplari” nomli ishida ko'rsatib beradiki liderlar o'z shaxsiy manfaat va maqsadlarini davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilishga tiqishtiradi va bu o'z – o'zidan, ichki siyosatning tashqi siyosatga ta'sirini, keyin esa jahon tizimiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin². Bu omillar tashqi siyosatga ta'sir etishi bilan birga uning zarurligini ham taqozo etadi.

Davlatlarning tashqi siyosati xalqaro munosabatlar tizimiga ijobiy yoki salbiy jihatdan ta'sir qilishi mumkin.

Birinchiidan, ayrim hollarda davlatlar o'zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda xalqaro munosabatlarda ro'y berayotgan o'zgarishlarni inobatga olmagan holda bu munosabatlarda ishtirok etishga va unga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Bunda gap u yoki bu davlat tomonidan xalqaro munosabatlarda ro'y berayotgan o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetmaslikda emas, balki davlatlar ayrim hollarda xalqaro munosabatlardagi tendensiyalar va ularning oqibatlari bilan hisoblashmay, o'z nuqta'i nazarini boshqalarga singdirishga urinish natijasida boshqa davlatlar bilan o'zaro manfaat va maqsadlar

¹ Tashqi siyosat va xalqaro siyosiy munosabatlar//http://arxiv.uz/files/53300_tashqi-siyosat-va-xalqaro-siyosiy-munosabatlar.html – 22.03.2013.

² Шарапова С., Каримова Н., Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран востока и запада. – Т.: Фан. 2006. – Б. 9.

zid kelib qolishi natijasida ikki hamda ko'p tomonlama munosabatlarda salbiy holat kuzatiladi.

Ikkinchidan, xalqaro munosabatlarni tartibga solib turishda davlatlarning tashqi siyosati alohida ahamiyatga ega. Tashqi siyosat yordamida davlatlar xalqaro maydonda ro'y bergan vaziyatga o'z munosabatlarini bildiradilar va kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda u yoki bu darajada hissa qo'shadilar. Keyingi yillarda Suriyadagi 2011 yildan buyon davom etib kelayotgan mojaroga nisbatan davlatlar turlicha tashqi siyosat olib bormoqda¹. Shu qatorda Afg'onistondagi vaziyatga nisbatan dunyoning ko'pchilik davlatlari va xususan O'zbekiston ham o'z munosabatini bildirib, ushbu davlatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar mazkur davlatlar tashqi siyosatining muhim yo'nalish va tamoillaridan biriga aylandi. Bu mintaqalardagi harbiy harakatlarni to'xtatish va mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal qilish zarurligi davlatimiz tashqi siyosatida ham yetakchi o'rinni egallaydi. Bu borada Prezidentimiz I. Karimov "Afg'on mojarosini bartaraf etishning yagona yo'li – siyosiy yo'l bo'lib, qanchalar qiyin bo'lmasin, qarama – qarshi kuchlarni muzokaralar orqali o'zaro kelishuvga olib kelish ekani tobora o'z tasdig'ini topayotganligini alohida ta'kidladi. Ayni shu asnoda vaqtinchalik hukumat tuzish, saylovlar o'tkazish, Afg'oniston oldida turgan og'ir muammolarni hal etishga o'tish imkonini paydo bo'lishini bugungi kunda ko'pchilik e'tirof etmoqda"²

Uchinchidan, Xalqaro munosabatlarda ro'y beradigan mojaroli vaziyat va o'zaro qarama – qarshiliklar hamda davlatlarning mazkur muammolarni bartaraf etishda manfaatlarining mos kelmasligi natijasida vaziyatning yanada og'irlashuvi tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda har bir davlat xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan muammolarni hal etishda o'z tashqi siyosatini xalqaro huquq normalariga asoslangan holda amalga oshirish, ko'pchilik davlatlar tomonidan e'tirof etilgan tashqi siyosat prinsiplari talablariga rioya qilish zarur.

¹ http://www.mid.ru/brp_4.nsf/0/F95B465BB92FB07344257BF70036E887 – 08.01.2014.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. / Нашр учун масъул илмий – ижодий гуруҳ: М.Комилов, У.Ғафуров, М.Амонбоев; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: О'qituvchi. НМИУ, 2013. – Б. 49.

Xalqaro munosabatlar tarixidan ma'lumki, bu munosabatlarda kelib chiqadigan muammolarni hal etishda bir tomonlama yondashish hech qachon ijobiy natijaga olib kelmagan.

Xulosa qilib aytganda, tashqi siyosat davlatlarning xalqaro hamjamiyat doirasida milliy manfaatlarini ta'minlashga, xavfsizligini kafolatlashga qaratilgan oqilona tashqi siyosat olib borish vositasi bo'lib, o'z navbatida ushbu faoliyat bir qator zaruriy strategiyalarni ham qamrab oladi. Ushbu strategiyalar doimiy ravishda ijobiy xarakterga ega bo'lmasdan, ko'p xollarda umumbashariy manfaatlardan ko'ra individual manfaatlar ustivorligi aks etadi. Buning natijasida jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimidagi aktorlar o'rtasida o'zaro keskinlashuv, muayyan masalalar borasida manfaatlarning bir biriga nisbatan qarama – qarshi kelishi va albatta bunday bir vaziyatda har bir aktorning o'z milliy manfaatlarini ta'minlash maqsadida olib brogan tashqi siyosati natijasida Jahon siyosati subyektlari o'rtasida o'zaro keskinlashuv oqibatida xalqaro tizimning yanada murakkablashishiga olib keladi.

1.2. Tashqi siyosat tushunchasiga doir nazariy yondashuvlar

Hozirgi davrda siyosatshunoslik fanida “tashqi siyosat” atamasi va uning mohiyati borasida bir qator ilmiy ishlar orqali nazariy asoslari yaratilgan bo'lsada, tashqi siyosat borasida yagona ta'rif mavjud emas. Har bir tadqiqotchi ta'rif berishda tushunchaning muayyan bir jihatini ochib berishga intilgan.

Shu bilan bir qatorda, davlatning tashqi siyosatini tahlil eta turib, turli xil metodologik yondashuvlarga tayangan holda ish olib borish mumkin. Ameriklik tadqiqotchi G.Allison yondashuviga ko'ra tashqi siyosatning shakllanishida uch asosiy model ajratiladi:

Birinchi model – klassik, unga ko'ra tashqi siyosat aktorning anglangan, maqsadli va ratsional harakati natijasiga bog'liq (butun davlat, hukumat yoki uning rahbarlari);

Ikkinchi model – tashqi siyosatning uyushgan aktorlar va jarayonlarning majmuasi sifatida namoyon bo‘lishi;

Uchinchi model – tashqi siyosat siyosiy muassasa va ularning yetakchilarining siyosiy savdosi sifatida, hukumat ichidagi, yana lobbist guruhlarga nisbatan uning munosabatida sodir bo‘ladi¹.

Tashqi siyosatdagi klassik qarash geopolitikadagi siyosiy realizm konsepsiyasiga o‘xshash va G.Allisonning birinchi modeliga mos keladi, ushbu model tashqi siyosat davlatning harakati bilan harakterlanishini nazarada tutadi. Davlat yagona va butun tana sifatida insonga qiyoslanadi. Siyosatdagi bu turdagi qarashlar qadimgi dunyo va o‘rta asrlardagi xalqaro munosabatlar monarxlar o‘rtasidagi munosabatlar sifatida qarashga to‘g‘ri keladi. Avtoritar va totalitar tuzumlarda davlatning tashqi siyosiy kursi daho yoki diktator deb ataluvchi yagona shaxs tomonidan belgilanadi, bunda yaqin atrofdagi shaxslarning ishtiroki minimal darajada bo‘ladi².

Ushbu kitobning birinchi qismida tashqi siyosatga realistik yondashuv tanqid ostiga olingan edi va siyosiy realizm konsepsiyasiga alternativ tarzda J.Rozenauning konsepsiyasi xarakterlangan edi³. Bu konsepsiya, bizning qarashimizga ko‘ra, tashqi siyosat shakllanishining ikkinchi modeliga mos keladi. Ushbu model davlat tushunchasi turli xil tashkiliy tizimlarning yakdilligi va hech qanday monolit xususiyatga ega bo‘lmagan institut sifatida ko‘rishga asoslangan. Xalqaro siyosat masalalarida davlat o‘ta murakkab va kompleks xususiyatiga ega va bu jarayonlarda alohida butun javobgarlikni o‘z bo‘yniga oluvchi tashkiliy tuzilmalarning faoliyat olib borishini talab etadi. Tashqi siyosatning o‘zi xalqaro maydonda davlatlarning alohida harakatlanishiga undaydi va har bir shunday harakat jarayonlarning natijasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Davlatlar tomonidan tashqi siyosiy faoliyatda foydalaniluvchi zaxiralar(vositalar)(siyosiy-diplomatik,

¹ Making a Difference: Allison's Three Models of Foreign Policy Analysis // http://www.academia.edu/592889/Making_a_Difference_Allisons_Three_Models_of_Foreign_Policy_Analysis – 29.12.2013.

² Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. С.А.Ланцова, В.А.Ачкасова. – СПб.:Питер, 2007. – С. 266.

³ Making a Difference: Allison's Three Models of Foreign Policy Analysis // http://www.academia.edu/592889/Making_a_Difference_Allisons_Three_Models_of_Foreign_Policy_Analysis – 29.12.2013.

iqtisodiy, harbiy, huquqiy, informatsion va boshqalar) uning alohida tashkiliy-tuzilmaviy idoralari(TIV, Mudofa vazirligi, Moliya vazirligi va boshqalar) ixtiyorida bo'ladi. Qachonki yuqori davlat hokimiyati tashqi siyosiy maqsadlarga erishishda qaysi bir alternativ vositani tanlasa, bu davlatning qaysidir bir davlat apparatining vaziyatga mos keluvchi tashkiliy tuzilmasiga murojat etganini anglatadi¹. Ayni shu tuzilmalar davlatning tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishida axborotlar taqdim etadi. Ushbu tuzilmalar xususiyati va yo'nalishidan kelib chiqib xalqaro muammolar yuzasidan axborotlar to'playdi va qayta ishlaydi. Misol uchun harbiy idoralar milliy xavfsizlikning siyosiy-harbiy jihatlariga diqqatni qaratadilar, diplomatlar esa ushbu masalaning nisbatan siyosiy jihatlariga e'tiborni qaratadilar.

Barcha turdagi davlat apparati tarkibidagi tashkilotlarning faoliyati shakllantirilgan va dasturlashtirilgan, ularning erishishlari zarur bo'lgan maqsad va vositalar oldindan chizib qo'yilgan chegara doirasida belgilanadi. Har bir tashkilotda masalalarni hal etishda cheklangan huquqlar mavjud. Tashkilotlarning vazifalari belgilab qo'yilgan, muvozanatda va faqatgina ayrim yuzaga kelgan holatdagina sezilar-sezilmas o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Har bir tashkiliy tuzilmaning vazifalari oldindan belgilab berilgan bo'lsada ayrim vaziyatlarda ularning faoliyatlarida kesishish sodir bo'lishi mumkin. Ushbu holat markaziy hokimiyat tomonidan vazifalarni belgilashda aniqlik kiritilishini talab etadi. Oliy hokimiyat siyosiy kursni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi, aynan u qaysi tashkilot u yoki bu masala bilan shug'ullanishini belgilab beradi. Ammo G.Allisonning fikriga ko'ra markaziy hokimiyat tashkilotlarning har kunlik faoliyati bilan shug'ullana olmaydi, ammo uni faqatgina nazorat qilib tura oladi. Allison yana tashkilotlarning faoliyatini uzoq muddat rejalashtirish mumkin emas, agar bunday holat mavjud bo'lsa u faqatgina rasmiy harakterga ega bo'lishini ta'kidlaydi. G.Allison umumiy tashqi siyosiy maqsadlarni shakllantirishda davlat apparati tarkibiga kiruvchi alohida tuzilmalar o'zlarining nizom doirasidagi manfaatlarinigina ko'zlashlariga e'tibor

¹ Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. С.А.Ланцова, В.А.Ачкасова. – СПб.:Питер, 2007. – С. 267.

qaratadi¹. Ular budjetdan moliyalashtirilishining qisqartirilishi va boshqa tuzilmalar faoliyati doirasiga tushib qolish singari salbiy holatlardan qochish uchun intiladilar. Shu holatga bog'liq tarzda Allison uchinchi modelga mos keluvchi byurokratik konsepsiyani ilgari suradi².

Tashqi siyosatning byurokratik konsepsiyasi tashkil etish nazariyasiga asoslanadi va shuningdek, davlatning tashqi siyosatini, tashqi siyosiy kursini ishlab chiqish, qabul qilish va hayotga tadbiq qilishda ishtirok etuvchi idoralarni kuzatish har doim ular o'rtasidagi murakkab munosabatlarda aks etishini tan olgan holda to'ldiradi. Bu kabi har bir lobbiylashtirilgan holda faoliyat olib boruvchi idoralar o'rtasida konflikt holati, manfaatlar to'qnashuvi, rahbarlar ambitsiyasi kabi holatlarni oldinga suradi. Bu kabi murakkab hamkorlik yo tashkil etilgan hokimiyatlar bo'linishi tizimga (demokratiyada), yoki saroydagi fitnalarga (atoritar va totalitar siyosiy tizimlarida) ta'sir etishi mumkin. Aniq siyosiy kurs atrofidagi siyosiy – byurokratik o'yinning tajriba va texnologiyasi H.Kissenjer, I.Desrtler, R.Akseldor, D.Deyvis, G.Allison, M.Xelperin va boshqalar ishlarida to'laligicha yoritilgan³. H.Kissenjerning yozishicha : « Amerika tashqi siyosatiga o'xshagan narsa mavjud emas. Belgilangan natijaga yaqinlashtiruvchi qadamlar seriyasi mavjud, balki ular natijalarga erishish uchun rejalashtirilmagandir»⁴.

Kelishuvchi tomonlar qaror qabul qilayotganlarida muammoning yechimiga tegishli bo'lgan o'zaro munosabatlarda nafaqat pragmatik maqsadlar uchun bormasligi, balki maqsadlar ochiq, noaniq siyosiy yoki ma'lum huquqiy maqom ustida kelishuv bo'lishi mumkin. Odatda so'nggi o'rinda, mavhum bo'lmagan «yaxshiroq» yechim qabul qilinadi, ammo bunday yechimlarga qaror qabul qilayotgan guruhlar ichidagi kompromiss orqali siyosiy kelishuvga erishish mumkin. Tashqi siyosatni shakllantirish va hayotiyiligini ta'minlashda o'ringa ega bo'lgan elita va bosim o'tkazuvchi guruhlar bu kabi kelishuv faktlarini tan olish va

¹ Making a Difference: Allison's Three Models of Foreign Policy Analysis // http://www.academia.edu/592889/Making_a_Difference_Allisons_Three_Models_of_Foreign_Policy_Analysis – 29.12.2013.

² Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. С.А.Ланцова, В.А.Ачкасова. – СПб.:Питер, 2007. – С. 268.

³ O'sha joyda: – С. 268.

⁴ Kissinger H., Brodie B. Bureaucracy. Politics and Strategy. Los Angeles, 1968. p. 81. // <http://search.library.wisc.edu/catalog/ocm00082456> – 14.02.2014.

uning tashqi siyosiy qarorlar uchun mustasno holatdagi yuqori ahamiyati tadqiqot uchun muhimdir. To'raligicha siyosatni va qisman tashqi siyosatni belgilashda elita va bosim o'tkazuvchi guruhlarining o'rni va ahamiyati, ularning ehtimoliy ta'siriga oid obyektiv faktorlari haqida G.Almong, G.Kolko, B.Koen, S.R.Mills, P.Mott, F.Hanter va boshqa tadqiqotchilar ishlarida to'raligicha bayon etilgan.

Har bir davlat tashqi siyosatining shakllanish va hayotga tadbiiq etilishining real harakati jarayonida (Rossiya ham bundan mustasno emas) G.Allison tomonidan ta'kidlangan uch modelning barchasining elementlarini ko'rish mumkin. Shuning uchun tajribadan kelib chiqib barcha nazariy konsepsiyalarga e'tibor qaratish lozim. Ular turli xil aspektlar va tashqi siyosiy jarayonlar kabi murakkab va ko'p qirrali tushunchalarning tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Ushbu keltirilgan modellardan muallif Byurokratik konsepsiyani ilgari suradi. Negaki ushbu konsepsiyada tashqi siyosat yo'nalishini belgilashda siyosiy yetakchining roli ustivor ekanligini ko'rsatib o'tgan va asosiy e'tiborini uning xatti xarakatiga qaratgan.

Ta'kidlash joizki, har qanday tashqi siyosat maqsadi davlat suverenitetining yaxlit va bo'linmas ekanligini ta'minlashdir, bugungi kunda unga nisbatan ikki xil yondoshuv shakllanmoqda. Bir toifa mutaxassisleri (xalqaro siyosiy terminologiyada "idealistlar" deb ataladi) tashqi siyosatda global, umumbashariy manfaatlar va xavfsizlikni milliy davlat manfaatlaridan ustun qo'yishsa, boshqa bir guruh mutaxassislar (ular "pragmatik" nomi bilan tanish) bugun va yaqin kelajakda tashqi siyosatda davlat suvereniteti ustivorlikni o'zidan saqlab qolishi ma'qul va samarali ekanligi to'g'risida fikr bildirishmoqda. Lekin bugungi kunda murakkab bosqichda real jarayonlar, yechimini kutib turgan dolzarb muammolardan kelib chiqib barcha davlatlar, kerak bo'lsa, o'zaro hamkorlikni murosayu – madora yo'li bilan tan olish, bu borada diplomatik qurollardan foydalanish orqali, undan yiroqlashmagan holda konkret ishlarni amalga oshirishlari lozim bo'ladi¹. Boshqacha aytganda, tashqi siyosatning bosh maqsadi xalqaro maydonda davlat

¹ Политология: Ўқув қўлланма / муаллифлар гуруҳи. проф. И.Эргашев тахрири остида. –Т.:Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 231 – 232.

milliy manfaatlarini ta'minlashdir. Milliy manfaatlar – davlat tashqi siyosatining amaliyoti va nazariyasida, diplomatiyada, milliy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy tushuncha sifatida xalqaro munosabatlar tizimida eng ko'p qo'llaniladigan atamadir.

Bundan tashqari bugungi kunda siyosiy nazariyalarda tashqi va ichki siyosatning o'zaro aloqadorligi dolzarb masalalar jumlasiga kiradi. Bu borada mavjud turli maktab vakillari o'z nazariyalarida ushbu masalani o'rganib chiqqanlar. Shuning uchun ham ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligi hamda o'zaro ta'siri muammosi – siyosiy fanlarning murakkab munozarali muammolaridan biridir. Xalqaro – siyosiy fanlarning har bir yo'nalishi ushbu muammoni siyosatni harakatlantiruvchi kuchlari va manbalari asosidagi o'z shaxsiy tasavvurlaridan kelib chiqadi.

Masalan, siyosiy realizm tarafdorlari tashqi va ichki siyosat oxir oqibat kuch uchun kurashga olib keladigan yagona mazmunga ega bo'lsada, davlat faoliyatining prinsipial jihatdan farqli sohalarini qamrab oladi. tashqi siyosat ikki tarkibiy qisidan iborat milliy manfaatlar bilan belgilanadi: birinchisi, tirik qolish imperativi, ikkinchisi, bu manfaatlarning vaqt va makondagi aniq shakli. Ushbu shaklning belgilanishi tashqi dunyo bilan aloqalarda monopoliyaga ega davlatga taalluqli. milliy manfaatlar asosi doimiy xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun davlat hayotining ichki omillari realistlar tomonidan milliy manfaatlar tabiatiga ta'sir qilish imkoniyatiga ega deb hisoblanmaydi.

Boshqa nazariy maktab va yo'nalishlar nuqtai nazariga ko'ra, ichki va tashqi siyosat shunchalik bir-biri bilan bog'liq emas, ularning aloqalari determinativdir. Ular determinatsiyaning ikki versiyasi mavjud:

1. Ortodoksal marksizm nuqtai nazariga ko'ra, tashqi siyosat – ichki siyosiy tizimning sinfiy mohiyati in'ikosi (aksi) bo'lib, bu mohiyatni ifodalovchi iqtisodiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi.

2. Geosiyosiy konsepsiya tarafdorlari, “Boy shimol” va “Kambag'al janub” nazariyalari shuningdek, bog'liqlikning neomarkistik nazariyasi, “jahon markazi”, “jahon periferiyasi” va boshqa qarashlarga ko'ra tashqi siyosat majmuasi tashqi

majburlovchi kuchlardir. Gap “markaz” va “periferiya” o‘rtasidagi tashqi siyosiy kurashning asosiy maydoni bo‘lgan nosimmetrik o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari mavjudligi to‘g‘risida bormoqda. Ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, u yoki bu davlatlar doirasida partiyalar va harakatlar kurashi, ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, ulaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni bilan belgilanadi.

Neorealizm va strukturalizm vakillari uchun tashqi siyosat ichki siyosatning davomi hisoblanadi, xalqaro munosabatlar esa ichki ijtimoiy munosabatlar davomi sifatida qabul qilinadi. Tashqi siyosatni tariflashdagi hal qiluvchi rolni xalqaro tizimning ichki dinamikasi o‘ynaydi.

Dunyoning o‘zaro bog‘liqligi konsepsiyasi vakillari mazkur mazkur masalaning tahlilida ichki va tashqi siyosat yagona asos – davlatga ega degan fikrga asoslanishadi. Davlat hokimiyati ikki monopoliyaga ega: o‘z hududida kuch ishlatish huquqi, qonuniy soliqlar olish huquqi. Lekin davlatning bu ikki monopoliyasini amalga oshirish davlatning harbiy axborot va boshqa ilg‘or texnologiyalari rivoji darajasiga bevosita aloqador bo‘ladi. Shu sababli ushbu konsepsiya tarafdorlari uchun ichki siyosatning tashqi siyosatga nisbatan birlamchiligi yoki aksi holati mutloq ahamiyatga ega emas; ularning fikriga ko‘ra, har ikki holat, avvalambor, texnologik xarakterdagi omillar bilan belgilanadi.

Transmilliy maktabi tarafdorlari yanada ilgari ketishadi. Ularning fikriga ko‘ra, ishtirokchilarning turli ekanligi o‘zaro ta’sir ko‘rinishlari va kanallari har xil ekanligi davlatni xalqaro mutloq markazidan siqib chiqaradi. Ko‘z o‘ngimizda siyosatni ichki va tashqiga bo‘lish ahamiyatli bo‘lmagan global dunyo paydo bo‘ladi. 1969 yilda J.Rozenau tomonidan ilgari surilgan jamiyatning ichki hayoti va xalqaro munosabatlarning o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi g‘oyalari bunday yondoshuvga katta ta’sir ko‘rsatdi.

U birinchilardan bo‘lib, dunyoning “ikkiga bo‘linishi”ga oid fikrlarni bayon etdi: zamonaviylik, bir tomondan, davlatlararo o‘zaro munosabatlar maydonlari mavjudligi bilan xarakterlanadi, bu yerda klassik diplomatiya va strategiya “qonunlari” amalda bajariladi va boshqa tomondan, “suverenitetdan tashqari” aktorlar, ya’ni nodavlat ishtirokchilar to‘qnashadigan maydon mavjud. Bundan

jahon siyosatining ikki qatlamligi kelib chiqadi: davlatlararo munosabatlar va nodavlat aktorlarning o‘zaro aloqalari bir-biri bilan alohida nisbatan mustaqil va bir – biriga parallel ikki “post-xalqaro” siyosatni tashkil etadi¹.

Xulosa qilib aytganda, tashqi siyosatda global, umumbashariy manfaatlar va xavfsizlikni milliy davlat manfaatlaridan ustun qo‘yish, boshqa bir guruh mutaxassislarining (ular “pragmatik” nomi bilan tanish) bugun va yaqin kelajakda tashqi siyosatda davlat suvereniteti ustivorligini o‘zida saqlab qolishi ma’qul va samarali ekanligi to‘g‘risida fikr bildirishmoqda. Lekin bugungi kunda murakkab Jaxon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimidagi real jarayonlar, yechimini kutib turgan dolzarb muammolardan kelib chiqib, barcha davlatlar hamda xalqaro aktorlar o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, kun tartibidagi global muammolarni bir yoqadan bosh chiqargan holda murosayu – madora yo‘li bilan tan olish, bu borada diplomatik qurollardan foydalanish orqali, undan yiroqlashmagan holda konkret ishlarni amalga oshirishlari lozim. Tashqi siyosat davlatlarning xalqaro hamjamiyat doirasida milliy manfaatlarini ta’minlashga, xavfsizligini kafolatlashga qaratilgan oqilona siyosat olib borish vositasi bo‘lib, o‘z navbatida ushbu faoliyat bir qator zaruriy strategiyalarni ham qamrab oladi. Ushbu strategiyalar doimiy ravishda ijobiy xarakterga ega bo‘lmasdan, ko‘p xollarda umumbashariy manfaatlardan ko‘ra individual manfaatlar ustivorligi aks etadi.

¹ Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспекти. –Т.:Математика ва ахборот технологиялар институти босмахонаси, 2009. – Б. 8 – 10.

2 – BOB. XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MISR ARAB RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING RIVOJLANISH

2.1. Misrda davlat va diniy institutlarning rivojlanishi

Misr va boshqa arab davlatlaridagi zamonaviy ijtimoiy – siyosiy jarayonlarga bag‘ishlangan ko‘pchilik izlanishlar, u jarayonlardagi siyosatning sezilarli belgisi ikkita tomon – davlat va islomiylar orasidagi qarama – qarshiliklardir degan fikrga keladi. Bu davlatlarda boshqaradiganlar doirasida ham qarama – qarshiliklar mavjuddir. Xususan, Jazoirda bu islomiylikni tubdan yo‘qotish tarafdor kuchlari¹ va «mu’tadil islomiylar» bilan kelishish mumkin deb hisoblaydigan kuchlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklardir².

Oxirgi o‘n yillik davomida islom va siyosat, islom va demokratiya, islomning zamonaviy musulmon mamlakatlarining siyosiy tizimidagi o‘rni, shuningdek islom aqidasiining zamonaviy musulmon mamlakatlarining ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ta’siri bilan bog‘liq masalalar dolzarb mavzular sirasiga kiradi³.

Islom omilining mamlakatlarning ijtimoiy – siyosiy va madaniy hayotiga hamda davlatlar ichki va tashqi siyosatiga ta’sirining kuchaygani nafaqat musulmon olami, balki Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo qit’alarida ham sezilmoqda.

Din va siyosat munosabatlari madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalar hamda ijtimoiy ongning o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shu nuqtai nazardan jahonda yuz berayotgan asosiy jarayonlarni, ayniqsa ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy rivojlanishni katta e’tibor bilan

¹ Maddy-Weitzman B. Maghreb Regime Scenarios. - The Middle East Review on international Affairs. – Volume 10, No. 3, Article 8-10. – September 2006. – P. 45.

² Karawan I. Political Between State power and Islamist Opposition // Butterworth Ch.E., Zartman I.W. (eds.). Between the State and Islam. – Woodrow Wilson Center press and Cambridge University press, 2001. – P. 158

³ Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. Ш.Ёвқочев. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – С. 3.

tadqiq etilishi nihoyatda muhim deb hisoblanadi. Ayniqsa, demokratlashtirish va islohotlar o‘z davlatchiligining siyosiy tuzilmalarini yaratish yo‘liga o‘tgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham din va davlat, dinning davlat siyosiy tuzilmalariga ta’siri masalasi o‘ta dolzarb hisoblanadi. Davlat siyosatining bu sohadagi asosiy maqsadi faqatgina “buyuk ajdodlarimizning bebaho madaniy va ma’naviy merosini, muqaddas qadriyatlarimizni tiklash va hayotga qaytarishdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki “hayotimizni zamonning eng ilg‘or yutuq va mezonlari bilan boyitish, komil inson, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya ishini mutlaqo yangi negizda tashkil etish, muqaddas dinimizga hurmat-ehtirom faoliyatimizning ma’no – mazmunini belgilab kelmoqda”¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ta’kidlashicha, respublika rahbariyati va xalqi oldiga “mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik yangilash, jamiyatni erkinlashtirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yanada chuqurlashtirish” asosiy maqsad qilib qo‘yilgan².

Ba’zi arab – musulmon mamlakatlarida siyosiy jarayonlarga diniy – siyosiy tus beruvchi kuchlar aralashib, islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida konstitution tuzumga qarshi yoki mamlakatning siyosiy tuzumini ag‘darishdek yovuz maqsad yo‘lida foydalanilmoqda va bu jarayonlar arab mamlakatlarining ichki va tashqi siyosiy hayotida Yaqin Sharq mamlakatlarida, ayniqsa, Misrda katta ta’sirga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tmoq joiz.

Tarixchilarning qayd etishicha, XIX asr va XX asr boshlarida, deyarli yuz yil davomida (1820-1920) Misrda din e’tibor nuqtai nazardan ikkinchi o‘rinda turgan. Bunga davlatni boshqargan Muhammad Ali (1805-1849) va uning nabirasi,

¹ Каримов И.А. Озод халқнинг улуғ байрами – Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 14 йиллигига бағишланган тантанали маросимида сўзлаган нутқ 2005 йил 31 август. // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Асарлар тўплами. XIV жилд.

² Каримов И.А. янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлида янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш асосий вазифамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2006 йилда мамлакатнинг иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. 2007 йил 13 февраль. Ўзбекистон овози. 2007 йил 13 февраль. № 19 (27.664). – Б. 2.

xediv Ismoil (1863-1883) tomonidan mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha keng qamrovli islohotning boshlanganligi asosiy sabab bo'ldi¹. Muhammad Ali asos solgan islohotlar mohiyatini jamiyat hayotining barcha soxalarini tubdan yangilash hamda Misrni harbiy – iqtisodiy jihatdan qudratli davlatga aylantirish maqsadi tashkil qiladi. Shu bois ham u bundan 200 yil oldin keng ko'lamli islohotlarni boshlab yuborgan birinchi musulmon hukmdori hisoblanadi. Keyinchalik G'arbiy andozalar bo'yicha yangilanish jarayoni boshlangan boshqa musulmon mamlakatlarida ham shu singari tadbirlar amalga oshirilgan (Turkiya, Afg'oniston, Eron).

Binobarin, hokimiyatni markazlashtirish maqsadida davlat funksiyalarining o'zgartirilishi va kengaytirilishi an'anaviy ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar, jumladan, diniy tuzilmalar boshqaruvi va nazorati ostida faoliyat olib borgan institutlar hisobiga amalga oshirilgan². Shunday qilib, XX asrning boshlariga kelib, milliy hayotning ta'lim, adliya – huquq (qonunchilik va sudlar) tizimlari, diniy fondlar va vaqflar markaziy hukumat, ya'ni dunyoviy hokimiyat nazoratiga o'tkazilgan. Al – Azhar universiteti va diniy maktablardagi an'anaviy diniy ta'lim dindor o'qituvchilar ixtiyorida qolishiga qaramasdan, davlat nazorati ostiga olindi. Hattoki uni zamonaviy, ya'ni yevropacha konsepsiyalar va rusumlar ta'sirida isloh qilish uchun barcha chora – tadbirlar ko'rildi. Muhammad Ali hukmronligi davrida al – Azhar musulmonlarning asosiy ilmiy markazi sifatida tanildi.

Al-Azharning murabbiy va talabalari doimo Misr milliy – ozodlik kurashining harakatlantiruvchi kuchi sifatida oldingi saflarda borib, mamlakatning ijtimoiy – siyosiy hayotida katta ta'sirga ega bo'lishgan. “Al – Azhar majmuasini rivojlantirish to'g'risidagi qonun” qabul qilinganidan keyin (1961) mazkur ilm dargohida dunyoviy fakultetlar (ma'muriy boshqaruv, savdo, politexnika, qishloq

¹ Vatikiotis P.J. The Middle East. From the end of Empire to end of Cold War. – London and New York, Routledge, 1997. – P. 119.

² Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. Ш.Ёвқочев. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – С. 78.

xo‘jaligi, tibbiyot, muhandislik va b.), islom tadqiqotlari Akademiyasi va nashriyot tashkil etilgan¹.

Huquqning milliy tizimi ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayot zamonaviy shakllarining rivojlanishi hamda davlat qonunchiligi ahamiyatining ortishi ta’sirida shakllanib bordi. Xususan, savdo, dengiz, jinoiy va soliq huquqlari sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, keyinchalik huquqiy tartibga solishning boshqa sohalarida ham boshlanib ketdi. Huquq tizimini yangilash jarayoni bir qator boshqa musulmon mamlakatlaridagi (Turkiya, Suriya va b.) singari romano – german nusxasi bo‘yicha fuqarolik, jinoiy va boshqa kodekslarning qabul qilinishi bilan davom ettirildi. Misrdagi huquq milliy tizimiga G‘arbiy huquqning ta’siri mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishiga muvofiq ravishda kuchayib bordi. Dunyoviy milliy sudlarning joriy qilinishi shariat sudlarining vazifalari doirasi muntazam ravishda cheklanib borib, oqibatda faqat shaxsiy xarakterdagi huquqiy masalalarni hal qilishgagina qaratildi². Tabiiyki, bu jarayon o‘z - o‘zidan davlat ishlarida din o‘rning pasayishiga olib kelishdan tashqari, dunyoviy davlatning qat’iy qaror topib, konstitutsion parlament tizimining barpo etilganida eng yuksak darajasiga yetdi. XIX asrning oxirida islom islohotchilik harakatlarining bunday cheklovni to‘xtatishga ojiz ekanligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Islom islohotchilari davlat siyosatiga ochiqdan – ochiq qarshi chiqqan kuchni jamiyatning biron – bir nufuzli guruhidan topa olmadi. Ularning harakatlari “apologetik” xarakterga ega bo‘lib, nihoyatda zaif edi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya kabi yirik davlat nazorati saqlanib qolayotgan edi. Ikki asr oralig‘ida Misrda vujudga kelgan yangi siyosiy elita, ya’ni hukmron sinf, sekulyarizatsiya g‘oyasining tarafdori bo‘ldi. Bu jarayon Muhammad Ali va xediv Ismoil islohotlaridan bo‘lib, bularning barchasi Misr siyosiy, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy rivojlanish yo‘lini “G‘arbiy dunyoviy yo‘li” bilan bog‘laganligini to‘la asos bilan aytishga imkon beradi³.

¹ Халидов А. Ал – Азхар // Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – С. 15 – 16.

² Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. Ш.Ёвқочев. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – С. 81.

³ Esposito J.L. Islam and politics. – Third edition. – Syracuse University Press, 1984. – P. 127.

Hukumatning barcha qarorlari va targ'ibotiga qaramasdan, ijro qiluvchi hokimiyat ham, qonun chiqaruvchi hokimiyat ham diniy manbalar va diniy tamoyillar bilan o'z aloqasini batamom uzmagani edi.

Konstitutsiya islomni davlatning rasmiy dini sifatida e'lon qilishi oqibatida bu omil uning boshqa moddalari, xususan, fuqarolik huquqlari, diniy e'tiqod erkinligi, so'z erkinligi va boshqa haq – huquqlarga muqarrar ravishda ta'sir ko'rsatdi. Bunday holat, o'z navbatida, dunyoviy davlat konsepsiyasiga muayyan ma'noda zid ekanligidan dalolat bo'lsa-da, konstitutsiya “ilohiy ijozat”ga asoslangan hokimiyat qonuniyligini haqiqatda e'tirof qilgan. Shu tufayli ham din davlat ishlaridan asta – sekin chekinib borishiga qaramay, din va davlat o'rtasidagi munosabatlarning fundamental muammosi hal bo'lmasdan qolavergan¹.

Din va davlat o'rtasida aniq “dunyoviy siyosiy formula” yoki “konsensus”ning yo'qligi sababli, Misr hokimiyati dinni o'z siyosatlarini qonuniylashtirish hamda siyosiy ta'sir uchun raqobatda asosiy vosita sifatida amalda qo'llagan². Bu vaziyatda dinni ijtimoiy – siyosiy doiradan butunlay istisno etish uchun barcha jiddiy harakat, aksincha, uni siyosiy faoliyatning boshqaruvchi tamoyili sifatida tan olish teng me'yorda siyosiy tanglik yoki ijtimoiy – iqtisodiy beqarorlikka olib kelmoqda edi. Bunga 1920 yil o'rtalarida Misrning parlamenti va matbuotida davlat qonunchiligining manbalari to'g'risidagi qizg'in bahs – munozaralar, shuningdek, din va davlat o'rtasidagi munosabatlarning umumiy muammosi bo'yicha siyosiy ixtilofga olib kelgan vaqflar islohotini misol tariqasida keltirish mumkin.

Zamonaviy Misrda OAVda aks topayotgan fikrlar xilma – xilligi oxirgi o'n yilliklarda sezilarli darajada kengaydi, sud – huquq tizimi yanada mustaqil bo'ldi. Bundan tashqari, oxirgi yillarda davlatga oz bo'lmagan miqdorda siyosiy emigrantlar qaytib keldi, turli xildagi «huquqni himoya qilish tashkilotlari» va fuqarolik va huquqiy jamiyatni rivojlantirish bilan shug'ullanadigan boshqa guruhlarining o'sib borayotgan miqdori esa hukumatning ijtimoiy – siyosiy

¹ Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. Ш.Ёвқочев. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – С. 82.

² Ўша жойда: – С. 83.

plyuralizmga yetarlicha mo'tadil qarashidan dalolat beradi. Jamiyatning siyosiy tizimida muhim o'rinni kasaba uyushmalarining harakatlari egalladi, bu haqida, masalan, 2001 yilda bo'lib o'tgan, Misr kuzatuvchilarining fikricha «davlatning huquqni himoya qilish hayoti xavzasini to'qinlantirgan» Misr advokatlari kasaba uyushmasidagi (1912 yilda asos solingan) saylov dalolat beradi.

Ba'zi g'arbiy mualliflar hisoblaydilarki, bu bilan boshqarayotgan partiya, agar uning siyosiy opponentlari konstruktiv oppozisiya bo'lishdan to'xtasalar qat'iy choralar ko'rishga qodirligini ko'rsatish maqsadida, «MARdagi davlat boshqaruvchilari mumkin bo'lgan siyosiy faoliyatning o'lchovlarini belgilashga harakat qilmodalar, saylov tizimini boshqaryaptilar, «oppozision o'tmish»ga ega bo'lgan fuqarolar faoliyatiga qo'yilgan huquqiy cheklolarni bir oz to'xtatyaptilar, davlat – markazlashtirilgan klientalizmni amalga oshiryapti, radio va televideniya ustidan nazoratlarini saqlab qolmoqdalar, repressiv harakatlarni o'tkazmoqdalar»¹.

Misrda kiritiladigan islohotlarning mazmuni va ehtimoliy istiqboli, shuningdek MAR ning davlat siyosiy tizimining rivojlanishiga diniy omil ta'siri yuzasidan bir qator xulosaga kelish mumkin:

Birinchidan, oxirgi yillarda ortib borayotgan ichki va tashqi tajovuzlar, jumladan MAR dagi qat'iy avtoritar hokimiyat modelini tanqid qilishga duch kelib, bu boradagi choralarni uch toifaga bo'lish mumkin: MAR Konstitutsiyasining ayrim moddalariga va siyosiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarga tuzatish kiritilishi; yangi “mustaqil” nazorat idoralarini yaratish; fuqarolik erkinliklarini ta'minlash tamoyiliga zid keluvchi qonunlar yoki qoidalarini bekor qilish. Bunday choralar ijtimoiy – siyosiy vaziyat ustidan o'rtacha va uzoq muddatga nazoratni ta'minlashi lozim bo'lgan hukmron partiyaning rahbariy tamoyillari doirasida davlat siyosiy tizimini ehtiyotkorona liberallashtirishga qaratilgan davlat urinishlarini yaqqol namoyish etadi. Bunda, MAR dagi hukmron kuchlar o'z tutgan o'rnini zaiflashtirmaslik va biror – bir muxolif kuchlarning hokimiyatga yaqinlashuviga yo'l qo'yimaslik uchun imkoni

¹ Hudson M. After the Gulf War: Prospects for Democratization in the Arab World // The Middle East Journal, 15, no.1. – Summer 1991. – P. 407 – 426.

boricha urinishiga qaramay, partiya va boshqa siyosiy institutlarni yangilash, fuqarolik jamiyatining faolligi sohasini kengaytrish, bir qator qonunlarni o'zgartirish yuzasidan amalga oshirilgan choralar Misrning demokratlashuvi yo'lida ancha katta qadam qo'yganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ilk bora o'tkazilgan MAR prezidentining muqobillik asosidagi saylovlarini davlatning siyosiy tizimi rivojlanishida eng ahamiyatli voqea deb qarash mumkin. Shu bilan birga, prezidentlarga nomzodlarni olg'a surish mezonlari va qoidalari siyosiy raqobat uchun murakkab sharoit yaratdi. Konstitutsiyaning o'zgartirilgan 76 moddasi va "Prezident saylovlari to'g'risida" gi qonun har bir qonuniy partiyaga davlat yetakchisi lavozimiga o'z nomzodini olg'a surish huquqini berdi, lekin bu huquqni tor chegara bilan cheklab qo'ydi.

Misrning ko'pchilik siyosiy partiyalarining zaifligi hamda ancha yillardan beri jiddiy siyosiy raqobat yo'qligi Misrda va chet elda keng tan olingan davlatni demokratlashtirish yo'lidagi to'siqdir.

Shunday qilib, MAR rahbariyatining ijtimoiy hayotni liberallashtirish va siyosiy tizimni demokratlashtirish yo'lidagi barcha qadamlari islomiyarning Misr jamiyatidagi islomga yo'nalgan turli qatlamlariga g'oyaviy va ijtimoiy – siyosiy ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Davlatning hukmron doiralari ijtimoiy barqarorlikni tutib turishning yetarli ma'muriy, kuch va g'oyaviy imkoniyatlaridan foydalanib, o'z tutgan o'rnini mustahkamlashda davom etadi. Shu bilan birga, kelajak istiqbolda hokimiyat va islomiy muxolifat o'rtasida ancha qat'iy ziddiyatni kutish mumkin, uning uchun xalq ommasi ichida o'zining qo'llab – quvvatlash bazasini kengaytirish masalasi ancha dolzarb bo'lib qoldi.

Uchinchidan, diniy omilning Misrning siyosiy tizimi rivojlanishiga ta'siri shuningdek davlat rahbariyatining shu omilni o'z foydasiga o'girishga urinishlarida, o'z hokimiyat o'rnini "islomiy nuqtai nazardan" qonunlashtirish yuzasidan an'anaviy harakatida seziladi. Hukmron kuchlarning birinchi umumiy prezidentlik saylovlari davomida, keyin esa Konstitutsiyani o'zgartirishga oid

referendum mobaynidaga ba'zi harakatlarda namoyon bo'lgan "siyosiy paradoks" ning sababi ham shunda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Misr kabi arab davlatlarida avtoritar tizimdan demokratik tizimga o'tish tendensiyalari, Misrda davlatni boshqaruvchi kuchlar mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti ustidagi o'z mavqelarini mustaxkamlashga intiladilar. Biroq, bugungi kunda ularning qonuniyligini ta'minlash borasidagi harakatlar, davlat boshqaruv shakli monarxiya bo'lgan arab davlatlariga qaraganda, jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Hozirgi paytda Misrda davlat boshqaruv shaklini demokratik yo'llar bilan o'zgartirish tendensiyalari namoyon bo'lmoqda. Faqat bunday o'zgarishlar mamlakat ichkarisidagi ijimoiy va siyosiy barqarorlikni, milliy birlikni, mamlakat yaxlitligini ta'minlanishidan manfaatdor bo'lgan kuchlar tomonidan amalga oshirilganidagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Agar davlat boshqaruv shakli tashqaridagi kuchlar ta'sirida, hukumatga qarshi kuchlarni qo'llab – quvvatlanishi natijasida o'zgartirilsa, bu mamlakatda murakkab vaziyatni keltirib chiqaradi. Bunday holatning oldini olish maqsadida tizimni modernizatsiya qilish va yangilashda ko'plab arab davlatlari xususan, Misr, avtoritarizmga bo'lgan moyillikni va hokimiyatning an'anaviy tamoyillarini saqlab qolishga intiladi. Bu siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari ustidan kuchli nazoratni o'rnatishni ifodalaydi. Misrda hokimiyatning kuchli markaziylashuvi muxolifat kuchlarni siyosiy raqobat imkoniyatidan maxrum qilmoqda. Shu bilan birga hukumatga qarshi kuchlarni siyosiy jarayonga jalb etgan holda boshqaruv shaklini liberallashtirishga qaratilgan urinishlar mamlakatni boshqaruvchi tabaqa va umumiy birlikka qarshi jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

2.2. Misr Arab Respublikasi tashqi siyosatining 2011 yilga qadar asosiy yo'nalishlari

Tashqi siyosat siyosiy jarayonlarning o'ziga xos yo'nalishi va makoni sifatida ichki siyosatdan ayrim muhim jihatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, ichki siyosat

hokimiyat, davlat hokimiyatining shakllanish vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyat tamoyillari, amaliyot, ya'ni siyosiy jarayonlarga nisbatan yondoshuv va nihoyat qabul qilingan qarorlar va ularning bajarilish usullari, xatti – harakat va xulqi – atvor konstitutsiyasi, turli me'yoriy – huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi.

Geosiyosiy nuqtai nazardan davlatning xalqaro siyosatga ta'siri global yoki mintaqaviy darajada bo'ladi. Aniqrog'i, ayrim davlat tashqi siyosati o'z ta'sir ko'lamiga ko'ra, ulkan geografik makonni qamrab olsa, ikkinchi bir davlatning ta'sir kuchi mintaqaviy yohud submintaqaviy chegaradan oshmaydi.

Misr Arab Respublikasi davlat boshqaruviga Xusni Muborak kelishi davlat tashqi siyosatini nisbatan aniqligi hamda yangi jihatlarga ega edi. J. Abdul Nosir sovetparast va A. Sadat amerikaparast bo'lgan bo'lsa, AQSH tadqiqotchisi Luis Kantori fikriga ko'ra, Muborak o'zidan oldingi ikki sobiq rahbar olib borgan tashqi siyosatni o'zaro muvofiqlashtirib, uni yanada takomillashtirgan holda olib bormoqda deb ta'kidlagan¹.

X.Muborakning davlat rahbari sifatida mojarolarni hal etish va muayyan konsensusga kelishda o'ziga hos jihatlari sifatida pragmatiklik, ehtiyotlik, tizimlilik, aniqlik kabi jihatlari keltirilgan². Misr Arab Respublikasining 2011 yilga qadar tashqi siyosati J. A. Nosir, A.Sadat hamda X Muborakning shaxsiy xarakter, o'ziga hosligi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda keskin ravishda o'zgarib borgan. 1981 yil noyabr oyi Xalq yig'ini deputatlari oldida Muborak Davlat tashqi siyosatining yo'nalishlarini aniq ta'kidlagan edi va “ochiq eshiklar” siyosati davom ettirilishiga alohida to'xtaldi.

1982 yilning o'zida Misr 95 mamlakat bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatgan edi³.

¹ Константин Черемных «братья-мусульмане»: от начала до конца // <http://kavkazpress.ru/archives/4613> – 06.01.2014.

² Сейранян Б.Г. Хосни Мубарак. Начало политической деятельности. – М.: 1997. – С. 23.

³ Foreign Policy Decision Making. // <http://countrystudies.us/egypt/124.htm> – 22.02.2014.

Misr Arab Respublikasining 2011 yilga qadar tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va shu orqali faol tashqi siyosiy faoliyat olib borishda asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, X.Muborakning hokimiyat tepasiga kelishi bilan Misr AQSH bilan aloqalarni saqlab qolgan holda, undan qaramlikni kamaytirishga harakat qilgan edi. 1982 – 83 yillarda Misr AQSHdan 1 mlrd dollar iqtisodiy va 1,3 mlrd dollar hajmida harbiy yordam olgan. 1984 yil Misr rivojlanayotgan davlatlar ichida amerika harbiy va iqtisodiy yordami hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan¹. MARning 1984 yilning oxirida AQSHga qarzi 8,5 mlrd dollarni tashkil etgan². Muborak hukumati AQSHdan iqtisodiy qaramligiga qaramasdan, o'z tashqi siyosatini olib borishda mustaqil ekanligini namoyon qiladi. X.Muborak AQSHning Ras – Banas tezkor qarshi hujum kuchlari bazasini qurishda ko'maklashish taklifini rad etadi hamda o'z hududida chet davlat harbiy qo'shinlarining joylashishiga salbiy munosabat bildirgan³.

Undan tashqari, MARning qo'shilmaslik siyosatiga qaytishi, arab davlatlari va SSSR bilan o'zaro aloqalarning yana yo'lga qo'yilishi buning yaqqol misolidir.

Bu vaziyatda 1997 yillarga kelib ham AQSH, MAR tashqi siyosatining o'zgarish tendensiyalariga ko'z yumishga majbur edi, chunki AQSH uchun Misr mintaqada katta strategik ahamiyat kasb etgan⁴. 2000 yillarga kelib, Misr Bosh vaziri o'rinbosari Mustafa Xalil misr – amerika munosabatlarini quyidagicha izohladi: “Biz hech qachon AQSHning ittifoqdoshi ekanligimizni aytmaganmiz. Aniqroq qilib aytganda Misr strategik manfaatlari AQSHniki bilan mos keladi”⁵.

Dunyodagi ko'plab davlatlar kabi Misr ham AQSHning xalqaro maydondagi nufuzi va vazni, katta iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'z tashqi siyosatini olib borgan. Shuning uchun Misr AQSH bilan ikkiyoqlama munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishga intilgan. Arab dunyosi, musulmon

¹ Егорин А.З. Египет нашего времени. - М.: ИВ РАН, 1998. – С. 328.

² Рифаат А. Экономическая политика и сдвиги в промышленном производстве (на примере ряда арабских стран) // Ближний Восток и современность. Вып. 13. – М.: ИИИиБВ, 2002. – С. 209.

³ Сейранян Б.Г. Хосни Мубарак. Начало политической деятельности. – М.: 1997. – С. 100.

⁴ O'sha joyda: – С. 102.

⁵ Титоренко В.Е. Формирование внешней политики Египта после Г.А. Насера (1970 - 1993 гг.). – М.: 1994. – С. 72.

olami va Afrikada Misrning tutgan oʻrni, mintaqa barqarorligidagi ahamiyatini hisobga olib, Vashington xam Qoxira bilan aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor boʻlib kelgan.

Yaqin Sharq muammosi Misr – AQSH muloqotlarida doimo asosiy oʻrin tutib kelgan. AQSHning Misr bilan oʻzaro munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor boʻlgan, zero Yaqin sharq AQSHning “hayotiy muhim manfaatlar” joylashgan hudud hisoblanadi¹.

Ikkinchidan, Misr jahondagi yirik hamkorlaridan sanalgan Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan oʻzining yaxshi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini olib borgan. Yevropa – Oʻrtaer Dengizi havzasi hamkorligi doirasida amalga oshirilayotgan aloqalar har ikki tomon uchun ham manfaatli sanaladi. Yel Misrning eng yirik savdo hamkorlaridan sanaladi va Misr eksportining 42%, importining 37% ni tashkil etadi. Ikki oʻrtadagi umummiy savdo birgina 2004 yilda 11,6 mlrd aqsh dollarini tashkil etgan².

Misrning Yevropa davlatlari bilan munosabatlarida oʻzaro savdo – iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xususan, Yevropadan zamonaviy texnologiya olish, investisiyalar jalb qilish va eksport hajmini yanada koʻpaytirish asosiy oʻrinni egallagan. Sheriklik haqidagi bitim Misrning Yevropa davlatlari bilan aloqalarida muhim boʻlib qolgan.

Yevropa davlatlari orasida Misrning Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Ispaniya bilan munosabatlari faolligi bilan ajralib turadi.

Uchinchidan, Misr Arab Respublikasining 2011 yilga qadar tashqi siyosatining arab davlatlari yoʻnalishi. Xusni Muborak arab davlatlari bilan diplomatik aloqalarni yuridik jihatdan qayta tiklashga unchalik intilmadi. Muborakning bu yoʻnalishdagi asosiy qadamlari, bu ommaviy axborot vositalarida arab davlatlariga qarshi turli targʻibot ishlarini man etish, Arab Davlatlari Ligasiga qarshi tuzilgan arab va islom xalqlari Ligasini tarqatib yuborishi bu borada oʻz

¹ Arthur Goldschmidt Jr. Modern Egypt. The Formation of a Nation State. – N.Y.: Westview Press, 2004. – P. 10.

² Foreign relations of Egypt.// http://en.wikipedia.org/wiki/Foreign_relations_of_Egypt – 16.01.2014.

ahamiyatiga ega bo'lgan. Bunga parallel ravishda Arab Davlatlari Ligasi qarorgohini Qohiraga ko'chirish targ'ibot qilingan¹.

Shu bilan bir qatorda, Eron – Iroq urushi MARning arab davlatlari bilan yaqinlashuvining muhim faktorlaridan biri bo'lib ham hisoblangan. Bu holatda Eronning “islom inqilobi”dan xavfsiragan Fors ko'rfazidagi arab davlatlari vujudga kelgan xavfni bartaraf etishda Misr harbiy kuchining ahamiyatini tushungan edi.

MAR bilan aloqalarni qayta tiklashga o'z tashabbusini bildirgan davlatlar qatoriga Iroq kirdi, chunki bu paytda arab dunyosining yetakchi davlatlaridan biri Suriyaning Eronga yon bosishi Iroqning Misr harbiy ko'magiga juda ham muhtoj ekanligini ko'rsatgan edi. Bunda Iroq MARdan yetarlicha qurol – yaroq olgan va tegishli harbiy maslahatchi va ko'ngillilar Iroqqa jo'natilgan edi².

Undan tashqari, Muborak hukumatining ham davlat ichida ham arab dunyosida o'z mavqeini o'sishi, 1984 yili Marokashning qo'llab – quvvatlashi yordamida uning Islom Konferensiyasi Tashkiloti³ga qaytishi bilan bog'liq⁴.

X.Muborakning aniq yo'naltirilgan tashqi siyosati natijasida 1985 yillarga kelib Misr – Isroil tinchlik shartnomasiga amal qilishni saqlagan holda, muayyan darajada arab dunyosidagi izolyatsiyadan holi bo'lishga erishilgan edi.

Buning natijasida, 1987 yilning noyabrida Ummonda o'tkazilgan butun arab sammitida maxsus rezolyutsiya qabul qilingan bo'lib, mazkur rezolyutsiya o'zida MARning Arab Davlatlari Ligasidagi a'zoligini qayta tiklash va ADL a'zolarining MAR bilan aloqalarini rasman qayta tiklashini aks ettirgan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib B.G.Seyranyan arab dunyosiga nisbatan Misr tashqi siyosatini “Muborakning asl g'alabasi” deya nomlaydi⁵. Chunki o'n yil oralig'ida MAR nafaqat o'zining oldingi nufuzini tiklab oldi, balki mintaqadagi yetakchi davlatlardan biri sifatida ham o'z o'rniga ega bo'lgan edi.

¹ Егорин А.З. Египет нашего времени. – М.: ИВ РАН, 1998. – С.329.

² Сейранян Б.Г. Хосни Мубарак. Начало политической деятельности. – М.: 1997. – С. 48.

³ Qarang: Hozirgi nomi Islom Hamkorligi Tashkiloti

⁴ Рифаат А. Экономическая политика и сдвиги в промышленном производстве (на примере ряда арабских стран) // Ближний Восток и современность. Вып. 13. – М.: ИИИиБВ, 2002. – С. 208.

⁵ Сейранян Б.Г. Хосни Мубарак. Начало политической деятельности. – М.: 1997. – С. 56.

X.Muborak davrida Misr tashqi siyosatida yetakchi arab mamlakatlari va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, savdo – iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, mamlakatga horijiy investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatish, Sinay yarimorolli hududi va boshqa arab davlatlarida barqarorlik qaror topishi, umumarab birligi va birdamligini kuchaytirish masalalari muhim o‘rin tutadi.

1990 yil oxiri va 2000 yil boshlarida Misr o‘zining arab dunyosiga bo‘lgan munosabatida o‘z tashqi siyosiy ustunligidan voz kechmagan holda Afrika qit‘asida o‘z siyosatini kuchaytirgan. Misr – Liviya munosabatlari MAR tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan. 1969 yili Liviyada monarxiyaga barham berilgach, Muammar Kaddafi o‘sha davrdagi Misr prezidenti J. Abdul Nosir bilan iliq munosabatlar o‘rnatgan va bunda ikki davlat rahbarlarini ham arab davlatlarini yagona maqsad ostida birlashtirish g‘oyasi bog‘lagan. Nosirdan so‘ng kelgan A. Sadat sobiq prezidentning panarabizm g‘oyasini qo‘llab – quvvatlamagan va Liviya bilan hamkorlikni kengaytirishni ham hohlamagan. 1979 yili Isroil – Misr o‘rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi esa ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada keskinlashtirdi. MAR hokimiyatiga X. Muborak kelishidan so‘ng dastlab Misr – Liviya munosabatlarida rivojlanish kuzatilmadi.

1982 yili Liviya sobiq prezidenti Muammar Kaddafi Misrni “Kemp – Devid” bitimidan voz kechish, aks holda Misr milliy va siyosiy davlat sifatida o‘z mohiyatini yo‘qotishini” ta’kidlaydi¹.

Shu bilan birga, Muborak davrida Misr ko‘p marotaba arab davlatlari bilan munosabatlarning yaxshilanishi Isroil bilan munosabatlar yomonlashishi evaziga olib borilmasligini ta’kidlagan. Misr – Liviya o‘rtasidagi munosabatlar 1980 yilning oxiriga kelib yaxshilana boshlagan. Nihoyat, 1990 yilning oktyabrida Misrning Arab Davlatlari Ligasi a’zosiga aylanishi Misr va Liviya munosabatlarining tiklanishiga olib keldi².

¹ Юрченко В.П. Египет: проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.) – М., 2003, С. 122.

² Мамед-заде П. Партнерство ради воды // Азия и Африка сегодня, 2002. № 1, С. 38.

1993 yili X.Muborak “Al – Axrom” gazetasiga o’z intervyusida “Liviya barqarorlikning ta’minlanishi misrliklar manfaati va ikki tomonlama munosabatlar iliq bo’lib qolishi lozim” deya ta’kidlaydi¹. 1999 yili sobiq prezident Muammar Kaddafi Misrning mintaq xavfsizligini ta’minlashdagi o’ziga hos o’rnidan kelib chiqqan holda “Misrning zaiflashuvi butun arab davlatlarini zaiflashtiradi” deya ta’kidlagan².

To’rtinchidan, Misrning Afrika mintaqasidagi davlatlar bilan o’zaro munosabatlari va MARning ushbu mintaqadagi o’z o’rni ham mavjud. Mintaqadagi boshqa davlatlar bilan bir qatorda, Sudan bilan aloqalari ham alohida ahamiyat kasb etgan. Faqatgina Sudan Misrning 1979 yili Isroil bilan tinchlik shartnomasini imzolagandan so’ng arab davlatlari ichida unga iqtisodiy va siyosiy sanksiya qo’llamagan davlat hisoblangan.

Ammo 1980 yili Sudan tashqi ishlar vaziri R.Bakr ta’kidlashicha, Isroil – Misr o’rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi Yaqin sharqdagi vaziyatni yanada kesinlashtirdi³. 1982 yili Misr va Sudan o’rtasida harbiy – siyosiy hamkorlik sohasida “Integratsion xartiya” imzolandi. 1987 yili Misr – Sudan o’rtasida ikki tomonlama iqtisodiy – savdo aloqalarini rivojlantirish to’g’risida shartnoma imzolandi.

1995 – 2000 yillar oralig’ida Misr va Sudan o’rtasida o’zaro munosabatlarning yomonlashish tendensiyasi kuzatilib, bu Qohiraning Xartum tomonidan 1995 yil X.Muborakka qarshi suyuqastda qatnashishi bilan bog’liq bo’lgan.

2003 yil ikki davlat o’rtasida munosabatlar yana tiklandi va natijada davlatlar o’rtasida 19 ta shartnoma tuzildi. Ular qatoriga savdo aloqalarini rivojlantirish, transport aloqalarini yaxshilash, yagona misr – sudan bankini tuzish, neft qazib olish sohasidagi, energetika va boshqa sohalarni qamrab olgan.

¹ Юрченко В.П. Египет: проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.) – М., 2003, – С. 148.

² O’sha joyda: – С. 149.

³ Панфиленко Э.Н. Некоторые аспекты судано – египетских отношений.//Арабский мир в конце XX века. М. 1996г. – С. 27.

2004 yili ikki davlat fuqarolarining erkin harakatlanishini ta'minlash bo'yicha shartnoma imzolandi.

Undan tashqari Misr tashqi siyosatida suv siyosati alohida ahamiyat kasb etgan. 1988 yili Misr tashqi ishlar vaziri Butrosa Gali ta'kidlaganidek "mintaqadagi keying urushlar siyosiy sabablar tufayli emas, Nil suvlari uchun bo'ladi"¹. Shu bilan bir qatorda "Al – Axrom" strategik tadqiqot markazi tadqiqotchisi Magda Sobxi Yusuf fikriga ko'ra, "ertami kechmi Misr Nil daryosi suvlari bilan bo'lishishga majbur bo'ladi va bunda davlat suverenitetiga ta'sir qilmaydigan shartlardagina Nil suvlari bo'lishadi"².

Undan tashqari, «Qora qit'a»ning ham ba'zi davlatlar ishtirokida integratsion birlashmalarning ishlarida o'z faoliyati bilan ishtirok etib, iqtisodiy nuqtai nazardan bu qit'a muhim hudud hisoblanganligi Misrning Afrika siyosatining kuchayishiga sabab bo'ldi, shuning uchun MAR aynan iqtisodiy integratsion birlashmalariga e'tibor bergan. Ba'zi Afrika davlatlari uchun bu qit'a shu jumladan Misr bilan ittifoq har bir davlat uchun iqtisodiy rivojlanish uchun potinsial bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli rasmiy Qohira bu siyosatni mantiqiy va muhim siyosat sifatida baholagan. XXI asr boshida Misr A.B.T. (Afrika birligi tashkiloti) ni almashtirgan A.I. (Afrika ittifoqi) tashkiloti a'zosi bo'ldi³. O'z o'rnida shuni takidlash joizki Misr ko'pgina davlatlar qatori Afrika ittifoqi byudjetiga katta a'zolik badali to'laydigan va xech qarzdorligiga ega bo'lmagan davlatlardan edi.

2000 yil aprelda Misr tashabbusi bilan Qohirada Afrika va Yevropa qit'alari davlatlari davlat hukumat rahbarlarining birinchi Afrika – Yevropa sammeti bo'lib o'tdi. MAR prezidenti Xusni Muborak bu sammet ikki qit'a munosabatlarida yangi sahifa ochilishi bilan tarixda qolishini ta'kidladi. Yakuniy bayonatda sammet ishtirokchilari o'zlarining strategik hamkorliklarining asoslarini aniqlab olishdi.

Bular:

- ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish

¹ Нильский Э.Х. Некоторые аспекты проблемы регулирования стока Нила. // Ближний Восток и современность № 10, М.: 2001г. – С. 221.

² Фазельянов Э. Вода как фактор мира и стабильности. Проблемы Нила в зеркале международного права // Азия и Африка сегодня. – 1999. № 11, – С. 3.

³ Африканский союз // top.rbc.ru/tags/?tag...%F1%EE%FE%E7 .–.02.04.2014

- Afrikani Dune savdosiga qo'shish (xususiy sektorni mustahkamlash, inventitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy yuksalish uchun resurslardan foydalanish, tashqi qarzlar muammolarni xal qilgan xollarda),

- inson huquqlari va demokratik prinsplariga amal qilish
- o'zaro ziddiyatlarni xal qilish va tinchlik
- Afrikada qashshoqlik muammosini xal qilish¹

Yevro yetakchilariga murojaat qilar ekan, Xusni Muborak ularni Afrika davlatlari qarzlaridan voz kechib, «Qora qit'a» iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etishga chaqirdi.

Shunday qilib, Qohira sammeti ikki qit'a o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga, Afrika va Arab muammolarini xal qilishga harakat qilayotgan Misr diplomatiyasining faoliyati ko'rsatib berdi.

2000 yil iyunida Misr 380 mln. aholi va Ya.I.M. xajmi 182 mlrd. dollorga ega bo'lgan patensial bozorni tashkil qilgan sharqiy va janubiy Afrika umumiy bozor assotsiyasiga kirdi. 2000 yil oktyabrida tashkilot tamonidan 9 ta Afrika davlatlari, shu jumladan Misr, kirgan erkin savdo mintaqasini yaratdi². Misrning bu tashkilotga a'zo bo'lishining asosiy maqsadlaridan biri eksportni kengaytirish va savdo balansi yetakchilligini kamaytirish edi. Bu chora mintaqadagi iqtisodiy aloqalarga jiddiy turtki berdi. 2003 yili Misr Arab Davlatlari Ligasining yangi organlarini ta'sis etish orqali mavjud muammolarni yanada tez va oqilona hal etish tashabbusi bilan chiqdi. 2005 yil ADL doirasida uni institutsional jihatdan yangilash Jazoir sammetida Misr takliflari inobatga olindi³. MARning savdo xajmi 2004 yilda 320 mlndan 2005 yilda 620 mlnga oshdi. 2007 yilga kelib savdo aylanmasi 5,4 mlrd dollarga yetdi⁴. Afrika mamlakatlarining Qohira tashqi siyosatidagi o'rni Misrning qit'adagi nufuzi va vazni bilan belgilanadi. Misr qit'a muammolarini hal qilishda ham faol ishtirok etdi. Shunday qilib, Misr o'zining

¹ Ольга Кулькова/ К.и.н., с.н.с. Центра изучения российско – африканских отношений и внешней политики стран Африки Института Африки РАН, сотрудник Центра проблем безопасности и развития МГУ. Африка и ЕС: в преддверии четвертого совместного саммита // http://russiancouncil.ru/inner/?id_4=3438 – 03.04.2014.

² Египет - Обзор экономики Египта // http://www.ved.gov.ru/exportcountries/eg/about_eg/eco_eg/ – 05.03.2014.

³ Египетская инициатива по развитию системы межарабских отношений и реформированию Лиги арабских государств // Ас-Сияса ад-Даулия. Октябрь 2003. Вып. 154. Каир. – С. 397 – 400.

⁴ Внешняя торговля Египта // <http://restinworld.ru/stories/egypt/15544/1.html> – 02.03.2014.

tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida Afrikada asosan, shimoliy va sharqiy hududlarda faol harakatlanishga intildi.

Beshinchidan, Misrning Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarida Xitoy, Yaponiya, Koreya, Pokiston, Hindiston, Eronga alohida e‘tibor qaratiladi. Xitoy, Yaponiya va Koreya Misrni asosan savdo – iqtisodiy sheriklar sifatida qiziqtirishi kuzatilgan. Misr Uzoq Sharq davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlarini mamlakatga faolroq jalb qilish, eksport hajmini ko‘paytirish, xitoylik, yaponiyalik va koreyalik sayohatchilar sonini oshirish siyosatini olib borgan. Xitoy bilan munosabatlarga kirishish o‘ziga hos ahamiyat kasb etib, 1990 oxiri 2000 boshlarida Misr – Xitoy munosabatlari tezkorlik bilan rivojlana boshlagan. 1996 yil mayda Misrga so‘ngi 30 yil mobaynida birinchi marta XXR rahbari Szyan Szemin rasmiy tashrif bilan keldi. Tashrif natijasida rasmiy Pekin Yaqin Sharqda barqarorlikni ta‘minlash va mustaqil Falastin davlatining tashkil etilishi g‘oyasini qo‘llab quvvatlagan.

Bunda Davlat rahbarlari asosiy tamoillar sifatida:

- kuch bilan tahdid qilmaslik
- davlatarning ichki ishlariga aralashmaslik
- har qanday siyosiy nizolarni muzokaralar yo‘li bilan hal etilishi kerakligini ta’kidlashgan¹.

Xitoyning BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a‘zosi ekanligi, uning Yaqin Sharq muammolarini hal etish bo‘yicha Misr muhim strategik hamkor ekanligidan dalolat beradi. Rasmiy Pekin bu muammo bo‘yicha Qohirani to‘liq qo‘llab quvvatlaydi. Xitoy MARga qurol – yaroq yetkazib beruvchi davlatlardan biri sifatida ham qaraladi. 1996 yilning iyunida MAR va XXR harbiy hamkorlik to‘g‘risidagi protokol imzolandi.²

Shunday qilib, bu mintaqalarda Misr tashqi siyosatining faollashuv sabablari birinchidan, iqtisodiy xarakterga ega bo‘lsa, ikkinchidan, 1990 yillar boshida

¹ ПОЛИТИКА КИТАЯ В СТРАНАХ АРАБСКОГО ВОСТОКА // www.ivran.ru/attachments/077_pakhomova_diss2014.pdf. - 27.02.2014.

² Китай и другие - Россия и Ближний Восток // http://www.e-reading.ws/chapter.php/1014469/18/Satanovskiy_-_Rossiya_i_Blizhniy_Vostok_Kotel_s_nepriyatnostyami.html - 07.01.2014.

xalqaro munosabatlarda Misrning siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishi bevosita Yaqin Sharqdagi tinchlik va xavfsizlik bilan bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Misr Arab Respublikasining 2011 yilga qadar tashqi siyosati J. A. Nosir, A.Sadat hamda X Muborakning shaxsiy xarakter, o'ziga hosligi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda keskin ravishda o'zgarib borgan. X.Muborak davrida MAR tashqi siyosatining asosiy maqsadlari Isroil tomonidan bosib olingan Sinay hududlarini qaytarib olish, Yaqin sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, Arab Davlatlari Ligasiga qaytish hamda unda o'ziga hos o'ringa ega bo'lish, arab dunyosi va Afrika mintaqasi davlatlari bilan keng iqtisodiy – savdo va harbiy – siyosiy aloqalarga kirishish eng ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Arab dunyosidagi barqarorlikka asosiy tahdid soluvchi omillar arab – isroil mojarosi va boshqa mintaqaviy muammolarni hal etishga qaratilgan izchillik MAR tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishi hisoblanib, Qohira bu yo'nalishdagi o'z tamoyillarini doimo aytib kelgan yana bir ta'kidlaydi, arab – isroil mojarosi faqatgina siyosiy muzokaralar asosida adolatli hal etilishi, Arab olami tashqaridan majburlab o'tkaziladigan hoh siyosiy, hoh ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni inkor etadi. Bu kabi o'zgarishlar ichki omillardan kelib chiqqan holda ilgari surilishi hamda tashqaridan bo'lgan aralashuv esa arab jamiyatidagi mana shu ichki omillarni qo'llab – quvvatlashga qaratilgan bo'lishi va shu bilan birga arab davlatlarida siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarmasligi kerak.

Undan tashqari, XIX asr oxiri XX asr boshida Misrning boshqa arab dunyosi davlatlari bilan qanday munosabatlarda bo'lishidan qat'iy nazar, Qohira Yaqin Sharq diplomatiyasining o'ziga hos markazi ya'ni Misr Yaqin Sharqqa kirishda o'ziga hos darvoza bo'lgan. Shu bilan birga J.A.Nosir, A.Sadat hamda X.Muborak davridagi MAR, uning mintaqa xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda hamda butunarab muammolarini hal etishda qanchalik muhim o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

3 – BOB. HOZIRGI XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MISR ARAB RESPUBLIKASINING O'Z O'RNIGA EGA BO'LISHIDA MAVJUD MUAMMOLAR.

3.1. “Arab bahori” va Misr Arab Respublikasi tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng o'zgarishi

Arab bahori 2010 yil oxirida arab dunyosida boshlangan qator e' tirozlarga berilgan nomdir¹. Ular Tunis, Misr, Yaman, Jazoir, Iordaniya, Mavritaniya, Saudiya Arabistoni, Ummon, Sudan, Siriya, Liviya hamda Marokash kabi mamlakatlarni qamrab oldi.

E' tirozlar 2010 yil 18 dekabrda Tunisda, Muhammad Buazizining politsiya poraxo' rligi va qattiqqo' lligi sababli o' zini yoqib yuborishidan boshlanib ketdi.² Tunis to' ntarilishi muvaffaqiyati va mintaqadagi o' xshash vaziyatlar tufayli, namoyishlar to' lqini qo' shni mamlakatlarga o' tdi, jumladan e' tirozlar Jazoir, Iordaniya, Misr va Yamanda davom etdi. Ko' pgina vaziyatlarda e' tirozli kunlar "jahl kunlari"³ deb ataldi.

E' tirozlar natijasida birinchi bo' lib o' zgargan hukumat Tunisniki bo' lib, sobiq Prezident Zayn al – Abidin ibn Ali Saudiya Arabistoniga qochdi⁴. Keyingi katta e' tirozlar Misrda 2011 yil 25 yanvarida boshlandi. To' rt kunlik namoyishlardan so' ng Prezident Husni Muborak islohotlar o' tkazishga va' da berdi, biroq lavozimidan kechish niyatini bildirmadi. Bundan keyin davom etgan namoyishlardan so' ng Muborak 30 yillik mansabini boshqa egallamasligini, sentabrda bo' lib o' tadigan saylovlardan so' ng iste' foga chiqishini e' lon qildi.

¹ Will the Arab revolutions spread? The Middle East Channel // http://mideast.foreignpolicy.com/posts/2011/01/26/will_the_arab_revolutions_spread – 11.11.2013.

² Slap to a Man's Pride Set Off Tumult in Tunisia // http://www.nytimes.com/2011/01/22/world/africa/22sidi.html?pagewanted=1&_r=2&src=twrhp& – 17.12.2013.

³ Yemenis square off in rival 'Day of Rage' protests // http://www.arabnews.com/middleeast/article_250370.ece – 17.12.2013

⁴ Slap to a Man's Pride Set Off Tumult in Tunisia // http://www.nytimes.com/2011/01/22/world/africa/22sidi.html?pagewanted=1&_r=2&src=twrhp& – 17.12.2013.

2011 – 2012 yillardagi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi voqealar mintaqada siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatning muvozanatini izdan chiqardi. Buning natijasida mintaqada bu holat bilan bog'liq jarayonlar evolyutsiyasining yangi yo'nalishlari vujudga keldi va bu o'z navbatida tegishli ravishda qisqa hamda uzoq muddatga yo'naltirilgan strategiya va maqsadlarni ishlab chiqish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Misrning xalqaro arenada aktiv ishtirok etishi, geosiyosiy qulay hududda joylashgani va boshqa omillar uni xalqaro munosabatlarning muhim aktorlaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Misr Arab Respublikasida ro'y berayotgan jarayonlar arab dunyosi davlatlari bilan bir qatorda, qo'shni submintaqa davlatlariga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shu sababli ham Misr Arab Respublikasini Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada xavfsizlikni ta'minlanishining “tayanch konstitutsiyasi” sifatida qaraydigan davlatlar Misr siyosiy tizimining mustahkamligini ta'minlanishidan manfaatdordir.

MAR sobiq prezidenti X.Muborakning iste'foga chiqishi bilan, uning o'rini egallagan M.Mursi boshchiligidagi hokimiyat tashqi siyosatdagi o'zgarishlarni sobiq raqiblar bilan aloqalarni yaxshilash yo'li orqali amalga oshirilishini e'lon qildi. Misr hukumati eronlik diplomatlarga nisbatan har tomonlama iliq munosabat bildirdi va “XAMAS” bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishdan manfaatdorligini bildirdi.

2012 yil 7 iyulda Rossiya Federatsiyasidagi MAR elchisi Alaa Al – Xadidi ta'kidlashicha, M.Mursining davrida Misr tashqi siyosati ochiq xarakterga ega bo'ladi. Aniqrog'i kelajakda Mursi boshchiligidagi MAR tashqi siyosati oldingi rejimga qaraganda ochiqroq bo'ladi. Muqaddam sobiq hukumat muayyan xalqaro kuchlarga yo'naltirilgan bo'lsa, endi hamma xalqaro arenadagi barcha kuchlar hamda aktorlar bilan ochiq tashqi siyosat olib borish zaruratini tushunmoqda va bunda MARning aniq bir xalqaro tashqi kuchga yo'nalganligi tendensiyasi bo'lmaydi. Biz faqat sobiq rejim qo'llab quvvatlagan xalqaro subyektlar bilan

emas, barcha xalqaro munosabatlarning aktorlari bilan munosabatga kirishishning tarfdorimiz deb ta'kidlagan edi Xadidi o'zining nutqida¹.

Misr tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng asosiy yo'nalishlari mamlakatda ro'y bergan ijtimioy – siyosiy o'zgarishlar natijasida quyidagi hususiyatlarga ega bo'ladi:

Birinchidan, Misr tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng arab davlatlaridan Saudiya Arabistoni yo'nalishi. 2012 yilning 11 iyulida M.Mursi rasmiy tasrif bilan Saudiyaning Jidda shahriga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif davomida Misr prezidenti M.Mursi bilan Saudiya qiroli Abdulla ibn Abdul Aziz o'rtasida sobiq MAR prezidenti X.Muborak davrida sovuqlashgan Misr – Saudiya davlatlari o'rtasidagi o'zaro diplomatik aloqalar bo'yicha uchrashuv tashkil etilgan edi². Shu bilan bir qatorda Saudiya Arabistoni muqaddam Misrda ro'y bergan inqiloblardan juda ham bezovta ekanligini bildiradi.

Shu bilan bir qatorda ushbu tashrif davomida Saudiya qiroli Misr – Eron munosabatlarining yaxshilanishi masalasiga alohida to'xtaldi. Bunda Fors ko'rfazi davlatlari Misr – Eron diplomatic aloqalarining qayta tiklanishidan emas, balki mazkur aloqalar Fors ko'rfazidagi arab davlatlarining suverenitetiga qarshi yo'naltirilmaganligiga ishonch hosil qilmoqchi edi.

Ikkinchidan, Misr tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng Eron Islom Respublikasi yo'nalishi. 2012 yilning avgust oyida MARning yangi prezidenti M.Mursi Eronga ikki tomonlama diplomatik munosabatlarni qayta tiklash uchun tashrif buyurdi. Buning natijasida, ko'p yillar ichida ilk marotaba Eronda MAR elchisi tayinlangan. Bu uchrashuvning tomonlar o'rtasidagi aloqalarning yaxshilanishiga olib kelishi bilan bir qatorda, hali ham Eron va MAR o'rtasida muammoli masalalar mavjud edi.

¹ Внешняя политика Египта станет более открытой // http://ria.ru/arab_eg/20120702/689956149.html#13978991790253&message=resize&relto=register&action=addClass&value=registration – 01.04.2014.

² Косач Г.Г. Египетско-саудовские отношения: визит президента Аре Мухаммеда Мурси в Саудовскую Аравию // <http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/24-07-12b.htm> – 08.04.2014.

Bunda Mursining tashrifidan so'ng Eron – Misr diplomatik aloqalarining rivojlanishidagi asosiy qiyinchilik bu MARning Saudiya Arabistoni hamda G'arb davlatlari bilan aloqasi bo'lgan¹.

Misr prezidenti M.Mursi Eron Islom inqilobidan so'ng 30 yil o'tgach Misrning ilk bor Eronga tashrif buyurgan prezidenti bo'lgan edi. 2012 yilning 30 avgustida Mursi “Qo'shilmaslik harakati” sammitida rahbarlikni Eronga berdi².

O'z navbatida, Eron prezidenti Mahmud Ahmadinajot 2013 yilning 5 fevralida Misrga rasmiy tasrif bilan kelib, mamlakat tarixida Eron Islom inqilobidan so'ng ilk bor Misrga tashrif buyurgan Eron prezidenti bo'ldi³.

Uchinchidan, Misr tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng Janubiy Amerika yo'nalishi. Misr prezidenti M.Mursi davlat tashqi siyosatini olib borishda yangi yo'nalishlarni amalga oshirdi. Bunda Mursi Janubiy Amerikaning Braziliya davlatiga rasmiy tashrif uyushtirib mamlakat tarixida mazkur mintaqaga tashrif buyurgan ilk president bo'lgan edi.

Misr – Braziliya davlat rahbarlari uchrashuvi davomida tomonlar 6 ta davlatlararo shartnoma imzolagan:

- Atrof muhitni muhofaza qilish
- Ijtimoiy liyohalarni amalga oshirish
- Qishloq xo'jaligini rivojlantirish
- Texnologik hamkorlik
- Madaniy almashinuv⁴

Misr uchun Braziliya investitsiyalari mamlakat iqtisodining rivojlanishi va yanada barqarorlashtirishda katta ahamiyatga ega. Misr – Braziliya umumiy savdo aylanmasi 2002 yildan 2012 yilgacha 410 mln dollardan 2.96 mlrd dollargacha oshgan va shu bilan bir qatorda mazkur Mursining Braziliyaga tashrifida 2010

¹ Official says Cairo may open embassy in Iran soon, reports Iranian media // <http://www.egyptindependent.com/news/egyptian-official-says-cairo-may-open-embassy-iran-soon-reports-iranian-media> Egyptian – 06.04.2014..

² Egypt's Morsi to make historic trip to Tehran // <http://www.aljazeera.com/news/middleeast/2012/08/2012818182526548301.html> - 12.03.2014.

³ Iran's president begins historic Egypt visit // <http://www.aljazeera.com/news/middleeast/2013/02/20132585923942211.html> - 06.04.2014.

⁴ Президент Египта считает поиск инвесторов одной из приоритетных задач во время визита в Бразилию // <http://egu.ved.gov.ru/news/?action=show&id=8246&prefix> – 17.04.2014.

yilda imzolangan MERKOSUR va Misr o'rtasidagi erkin savdo hududi to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish masalasi ham ko'rib chiqilgan¹.

To'rtinchidan, Misr tashqi siyosatining 2011 yildan so'ng Yevropa yo'nalishi. 2012 yilning 13 – 15 sentabr kunlari Mursi Brussel va Rimga tashrif buyurib, barcha yevroburokratik yig'in (X.Van Rompey, J.Barrozu, K.Eshton) bilan uchrashdi. E'tiborli jihat shundaki, Mursi yevropaga qilgan tashrifida Fransiya va Germaniya chetda qolgan edi. Bu holatda Yevropa davlatlari keyinchalik Misr iqtisodiyotini rivojlantirish va boshqa sohalarni yanada takomillashtirish uchun investitsiyalar kiritilishini ta'kidlashadi².

Rus tadqiqotchisi I. Moxova ta'kidlashicha, hokimiyatga kelgan yangi prezident Muhammad Mursi Misr tashqi siyosatini o'zgartirishga harakat qilgan edi. Uning asosiy maqsadi kelajakda tashqi siyosiy hamkorlikning kengaytirilishi evasiga, X.Muborakning juda ham g'arblashgan tashqi siyosatidan voz kechish edi. Undan tashqari Mursi Misrning mustaqil tashqi siyosat olib borishi hamda mintaqaviy va xalqaro arenada o'z o'rniga ega bo'lishiga harakat qilgan³.

Misrda hokimiyat siyosiy elitesining o'zgarishi va hukumat tepasiga “Musulmon birodarlar” ning kelishi, Misr tashqi siyosatini sezilarli darajada o'zgarishi va yangi yo'nalishda olib borilishi tendensiyasi kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, mutaxassislar Mursining turli tashqi siyosiy faoliyati tashqi siyosat olib borishdagi qat'iyatsizligi to'g'risidagi fikrlarini qayta ko'rib chiqishga undagan edi.

Bunda Mursi 2012 yilning 5 sentabrda Arab Davlatlari Ligasining vazirlari sammitidagi murojaatida: “siriyaliklarga fuqarolik urushini oldini olish va tashqaridan harbiy aralashuvni to'xtatish”ni ta'kidlagan edi⁴. Suriyadagi muammoni hal qilish bilan bir qatorda, Mursi FATX bilan XAMASni yarashtirish

¹Южноамериканский общий рынок МЕРКОСУР и Египет // <http://russian.people.com.cn/31520/7934416.html> – 15.05.2014.

² Новые ориентиры внешней политики Египта // <http://voprosik.net/vneshnyaya-politika-egipta-pri-muxammede-mursi/> – 12.05.2014.

³ Мохова И. Новый режим в Египте: возможна ли смена внешней политики. Независимая газета. 2012. 1 октября. // http://www.ng.ru/courier/2012-10-01/9_egypt.html – 05.01.2014.

⁴ Внешняя политика Египта при Мухаммеде Мурси // <http://voprosik.net/vneshnyaya-politika-egipta-pri-muxammede-mursi/> – 13.04.2014.

emas, balki XAMAS rahbarlari Ismoil Xaniy va Xalid Mashal o'rtasidagi o'zaro keskinlikni bartaraf etishga e'tibor qaratgan edi.

2012 yilning 17 sentabrida Qohiraga Falastin avtonomiasining Bosh vaziri va XAMAS rahbari Misr rahbariyati bilan muzokaralarga tashrif buyurgan edi.

Ushbu tashrifdagi asosiy masalalar xavfsizlik sohasidagi hamkorlik, G'azo hududidagi cheklovlarni olib tashlanishi va Misr hamda G'azo sektori chegara hududlarida erkin savdo zonalarini tashkil qilishdan iborat edi.

Isroil – Misr o'rtasidagi tinchlik shartnomasiga ko'ra, Misr Sinay yarimorolini qaytarib oldi, ammo yarimorol hududida harbiy infrastrukturaning joylashtirilish tartibi va hajmi jegalangan edi.

Shundan buyon Misr doimo mazkur cheklovning olib tashlanishiga harakat qiladi va bunga nisbatan albatta, AQSH va Isroil doimi qarshi chiqadi hamda Sinayda tinchlik shartnoma shartlarini bajarilishini aksariyat a'zosi aqshlik bo'lgan "Millatlararo kuchlar va kuzatuvchilar" tashkiloti nazorat qilib boradi.

Isroilning "Saar - 5" raketali katerga ega suv osti kemasi Misr hukumatining roziligiga bino'an Suvaysh kanalini kechib o'tdi va O'rtayer dengizi orqali Qizil dengizga chiqdi.

2013 yili Mursi, Isroil davlati harbiy kemalarining bundan buyon Suvaysh kanali suvlariga kirishini ta'qiqlagan edi va buning asosiy sababi sifatida Eronning ushbu yo'nalish orqali G'azo sektoriga qurol – yaroq jo'natilayotgani dalil bo'lib hizmat qildi¹.

Mursi hukumatining rasmiy tashqi siyosatiga ko'ra, Misr yadroviy yoqilg'ida ishlaydigan har qanday harbiy va boshqa kemalarni Suvaysh kanalidan kechib o'tishini ta'qiqlagan va bu cheklovlardan AQSH Harbiy Dengiz Floti mustasno edi.

X.Muborak davrida AQSH avianosetsi Fors ko'rfazidan Tayvanga dislokatsiya qilinib va uning o'rniga O'rta dengizdan yana bir kema uning o'rnini

¹ Основные направления внешней политики Египта: Региональный аспект // <http://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-napravleniya-vneshney-politiki-egipta-regionalnyy-aspekt> – 26.02.2014.

bosgan edi¹. Bu Misr xalqi hukumatning AQSHni qo'llab – quvvatlashi va harbiy kemalarning hech bir to'siqlarsiz Suvaysh kanali bo'ylab harakatlanishiga qat'iy norozilik kayfiyatini bildirgan².

AQSHlik tadqiqotchi D.Shenker so'zlariga qaraganda, AQSH harbiy – strategik yo'nalish hisoblangan Suvaysh kanalida erkin harakatlanish maqsadida nafaqat siyosiy, balki harbiy vositalardan ham foydalanishi mumkin³.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Misr Arab Respublikasi davlat boshqaruviga M.Mursining kelishi davlat tashqi siyosatida turli tashqi siyosiy vektorlarni vujudga keltirdi.

Shu bilan bir qatorda M.Mursi Misrning muqaddam juda ham tor tashqi siyosiy yo'nalishidan (Aqsh va G'arbiy Yevropa) voz kechib, xalqaro munosabatlarning turli aktarlari bilan o'zaro manfaatdor aloqalarni yo'lga qo'yishga intilgan va bunda Mursining BRIKS davlatlari, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Saudiya Arabistoniga tashriflari bejiz emas edi.

Rossiyadagi Misr elchisi Alaa El – Xadidi ta'kidlashicha, yangi davlat prezidenti M.Mursining tashqi siyosati kelajakda aniq bir kuchlarga emas, balki jahon hamjamiyatidagi turli aktarlarga asoslangan holda olib borilishi va bunda hech qachon muayyan bir xalqaro kuchga yo'nalganlik tendensiyasi kelajakda kuzatilmasligini ta'kidlagan edi.

2011 yilda Isroil, Misrning mingdan ortiq askar, politsiyachi va harbiy texnikasini Sinaydagi mavjud terroristik kuchlarga qarshi jo'natishiga qarshilik qilmadi. Bu vaziyatda Mursi Sinayni yana Misr va boshqa arab davlatlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida harbiy bazaga aylantirish da'vosi bilan chiqishi va bunga asosiy sabab qilib, masalan Saudiyani Eron tomonidan uyushtiriladigan hujumlaridan saqlab qolishini sabab sifatida ko'rsatishi mumkin edi. Agar bu Misr tomonidan keyinchalik qo'lga kiritilsa, bu holat Eronning Misr va boshqa arab davlatlari bilan yaqinlashishi bilan bir qatorda, Sinay yarimoroli Isroilga qarshi

¹ Said Aly A. An Ambivalent Alliance - the Future of U.S - Egyptian Relations // Analysis Paper. January 2006. № 9. – P. 28.

² Cordesman Anthony H. The Iraq War: Strategy, Tactics and Military Lessons. London, 2003. – P. 56.

³ Shenker D. Egypt's Enduring Challenges // Policy Focus. April 2011. – P. 15.

urush olib borishda platsdarm vazifasini o'tashi mumkin edi. Albatta Misr tomonidan Sinay yarimorolini huquqiy maqomining o'zgartirilishi Isroil tomonidan jiddiy qarshilik va javob harakatlari bilan qarshi olinadi.

3.2. Hozirgi Misr Arab Respublikasining jahon siyosatidagi o'rnini

Misr Arab Respublikasi 2011 yilda boshlangan mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy inqiroz davlatning jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimidagi o'z o'rniga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Inqilobning mamlakatdagi kompleks sohalarga salbiy ta'siri va har tomonlama boshqaruv hamda ichki tinchlikni tartibga keltira olmaslik mamlakat suverenitetiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ko'plab mutaxassislar mamlakatdagi ushbu vaziyatda yuzaga kelgan muammoning fuqarolar urushiga olib kelishini oldini olish uchun siyosiy yo'l bilan hal etish maqsadga muvofiq ekanligini e'tirof etishmoqda. M.Mursining butun hokimiyatni o'z qo'l ostiga yig'ishi va haddan tashqari diktatorlik faoliyatini olib borishi mamlakat ommasi ichida noroziliklarning vujudga kelishiga olib keldi. AQSHlik mutaxassis Jin Sharpning so'zi bilan aytganda: "bir davlatdagi zolim boshqaruvchining hokimiyatdan chetlatilishi, bu kelajakda yangi diktatorning hokimiyatga kelmasligining kafolati emas"¹.

Undan tashqari, Misr Arab Respublikasining hozirgi xalqaro munosabatlarning muhim aktori va xalqaro huquq subyekti sifatida o'z o'rniga ega bo'lishida quyidagi to'siqlar mavjud:

Birinchidan, Misr sobiq prezidenti M.Mursining juda qo'pol ravishda egallab turgan lavozimidan chetlatilishi ko'plab xalqaro aktorlar tomonidan qoralanmoqda va hattoki mazkur holat tufayli ayrim davlatlar Misrga nisbatan turli cheklov, sanksiyalarni amalda qo'llashmoqda.

¹ Джин Шарп. От диктатуры к демократии // <http://psyfactor.org/lib/sharp.htm> – 14.05.2014.

Ikkinchidan, bugungi kunda vaqtinchalik hukumatning terroristik harakat sifatida tan olingan “Musulmon birodarlari”ning qatl etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa qator davlatlar tomonidan keskin qabul qilindi. Xususan, 2014 yilning 28 aprel oyida Misr sudi 683 “Musulmon birodarlari” harakatining vakillarini o’lim jazosiga mahkum etgan edi.

Uchinchidan, mamlakatdagi kompleks ijtimoiy – iqtisodiy⁰, harbiy – siyosiy va xavfsizlik sohasidagi tizimning buzilganligi natijasida Misrning Sinay hududi va mamlakatning boshqa ichki hududlarida turli harakatlarning faollashuvi.

To’rtinchidan, Misr Arab Respublikasining zaiflashuvi boshqa davlatlarning mazkur mintaqaga kirib kelishi va ushbu mintaqada o’z pozitsiyalarini mustahkamlab olish imkonini beradi.

2013 yil 3 noyabr, AQSh davlat kotibi Jon Kerri Qohirada Misr mudofaa vaziri general Abdul Fattoh al Qissiy bilan uchrashdi. Misrning AQSh bilan aloqalari sovuqlashgan bir paytda Rossiya tashqi ishlar va mudofaa vazirlari Qohiraga tashrif buyurgan. Ayrimlar nazarida Misr tashqi siyosatida burilish kuzatilmoqda.

Rossiya tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov va mudofaa vaziri Sergey Shoygu ikki davlat o’rtasida iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik munosabatlarini kuchaytirishga umid qilmoqda.

Prezident Muhammad Mursiyning hokimiyatdan chetlatilganidan norozi Qo’shma Shtatlar bu mamlakatga harbiy yordamini to’xtatib, ko’p yillik ittifoqchisini ranjitdi. Natijada, deydi ayrim kuzatuvchilar, Qohira tashqi siyosatiga tuzatishlar kiritayotgan, eski ittifoqchisi Rossiyani eslagan bo’lishi mumkin.

Sovuq urush davrida Misr Sovet Ittifoqidan yirik miqdorda harbiy va iqtisodiy yordam olgan. Misrlik ayrim faollar nazarida Qohira nafaqat Rossiya, balki Xitoy va boshqa davlatlar bilan ham yaqin aloqada bo’lishi lozim.

“Tamarod” guruhi vakili Mai Vahbaning aytishicha, Misr hech bir tarafga og’ib ketmaydi. Kimki uni hurmat qilsa, hurmat topadi¹.

¹ Египет после Мурси // <http://novoteka.ru/seventexp/7207040> – 11.05.2014.

Tahlilchilar AQSh bilan aloqani buzmaslik kerak, deydi. Chunki Qo'shma Shtatlar Qohira bilan aksil – terror amaliyotlarida, Sinay yarimorolida xavfsizlikni ta'minlashda yaqindan hamkorlik qiladi. Ayrim kuzatuvchilarga ko'ra, fuqarolik urushi bilan ovora Suriyadagi harbiy – dengiz bazasidan ayrilishdan cho'chiyotgan bo'layotgan Rossiya Misr bilan shunday bitim imzolamoqchi. Misrning eng yaqin ittifoqchisi Amerika undan harbiy – dengiz bazasini ololmagandan keyin Moskvaning ko'zlagan maqsadiga yetishi bir oz qiyindir.

Shu bilan bir qatorda, Misr rasmiylari ham strategik burilish haqidagi gaplarni inkor etmoqda.

Tashqi ishlar vaziri Nabil Fahmiyning aytishicha, Rossiya bilan haqiqatan munosabatlar ko'p yo'nalishlarda kengaymoqda, ammo Moskva bu borada hech kimning o'rnini egallayotgani yo'q¹. Turli mutaxassislar nazarida Misr Yaqin Sharq va dunyo miqyosida aloqalarini kengaytirib yaxshilasa, yana muhim va foydali mintaqaviy o'yinchiga aylanadi.

AQSh davlat kotibi Jon Kerrining aytishicha, Qo'shma Shtatlar Misrga harbiy yordamni to'xtatgani bilan bu davlatni hanuz yaqin do'st va hamkor deb biladi. Kerri bu haqda Qohirada Misr tashqi ishlar vaziri Nabil Fahmiy bilan matbuot anjumanida so'zlagan. Obama ma'muriyati mamlakatdagi siyosiy inqiroz va qon to'kilishlari sabab har yili ko'rsatiladigan 1,3 milliard dollarlik harbiy yordamning katta qismini muzlatgan edi.

Kerri ikki tomonlama munosabatlarni Misr muvaqqat prezidenti Odil Mansur bilan ham muhokama qilgan va Qo'shma Shtatlar iyul oyida prezident Muhammad Mursiying hokimiyatdan chetlatilishi bo'yicha ham norozilik bildirgan edi.

Qo'shma Shtatlar Misrga atalgan harbiy va moliyaviy yordamning bir qismini to'xtatishga qaror qildi va Davlat departamenti xulosasiga ko'ra, mamlakatda demokratik taraqqiyot kuzatilmayapti, prezident Muhammad Mursi hokimiyatdan olinganidan so'ng uning tarafdorlariga qarshi haddan ziyod kuch

¹ Внешняя политика Египта // http://ria.ru/arab_sy/20140122/990680836.html – 17.05.2014.

ishlatilgan¹. “Musulmon birodarlar” harakatining a’zolari iyul oyidan beri namoyish qilmoqda, muvaqqat hukumat esa ularni tazyiq ostiga olmoqda.

AQSh Davlat departamentining ma’lum qilishicha, Qo’shma Shtatlar yordamning bir qismini, jumladan chegara xavfsizligi uchun ajratilayotgan pulni Misrga berishda davom etadi. Qachonki mamlakat barcha siyosiy kuchlarni o’z ichiga oluvchi, demokratik ravishda saylangan hukumat tizimiga qaytsagina, yordam dasturlari o’shanda to’liq tiklanadi.

AQSh davlat kotibi so’zlovchisi Meri Xarfning aytishicha, Qo’shma Shtatlar Misrda tinchlik va barqorlik qaror topishi tarafdori. "So’nggi bir necha oydagi mavhumlik va beqarorlikka barham berish lozim. Misr hukumati bilan muloqotdamiz. O’tish davri qiyinchiliklarini yengib, oyoqqa mahkam turib olishlariga tilakdoshmiz", - deydi Amerika rasmiysi².

Misr Isroildan so’ng AQShdan eng ko’p yordam olayotgan mamlakat hisoblanadi. Prezident Muhammad Mursining hokimiyatdan olinishi ketidan vujudga kelgan namoyishlarni bostirish uchun muvaqqat hukumat harbiylarni ishga solib, yuzlab odamlarning o’limiga sabab bo’lgani Obama ma’muriyatini Misrga yordam dasturlarini qayta ko’rib chiqishga majbur qildi.

Amerikalik jurnalist Jonatan Broderning aytishicha, muvaqqat hukumat AQSh harbiy yordamidan quruq qolishdan tashvishda emas, "Misr ayni damda Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklaridan katta – katta pul olmoqda. Yanglishmasam, 12 milliard dollar atrofida. Amerika yordami buning oldida daryodagi bir tomchi suvday", - deydi Broder³.

Isroil AQShdan Misrga harbiy yordamni kesmaslikni qat’iyan so’ragan. Biroq Misrda fuqarolar tazyiqqa oлина boshlagach va mamlakatda inson huquqlari keng ravishda buzilgani haqida hisobotlar chiqqach, Obama ma’muriyati bularga ko’z yuma olmadi. Agar Misr rahbarlari erkin va adolatli saylovlar o’tkazib, zo’ravonliklarga barham bersa, AQSh yordami tiklanishi mumkin.

¹ Свержение М.Мурси: в Египет вернулась арабская весна // <http://top.rbc.ru/story/865097.shtml> – 02.05.2014.

² Что происходит в Египте? // <http://inosmi.ru/world/20130819/212077226.html#ixzz32eai8QFQ> – 19.05.2014.

³ Египетское стратегического партнёрства // <http://www.odnako.org/blogs/k-vozvrashcheniyu-russko-egipetskogo-strategicheskogo-partnyorstva/> – 14.05.2014.

Qo'shma Shtatlar Misrni har yili 1,3 milliard dollarga teng harbiy yordam bilan ta'minlaydi. Ayni damda Qohiraga Apachi rusumidagi jangovar vertolyotlar, raketalar va tank uchun ehtiyot qismlari, naqd pul va zayom kafolatlarining berilishi vaqtincha to'xtatilgan. Ammo tibbiyot va ta'lim, terrorga qarshi kurash va chegaralar muhofazasiga taalluqli dasturlar bu cheklovlardan mustasno.

Bugungi kunga kelib Misr Arab Respublikasining har tomonlama barqarorligidan Isroil davlati manfaatdordir. Buning asosiy sabablaridan biri Misr Isroil suvereniteti hamda ichki va tashqi barqarorligini ta'minlashning strategic muhim kafolati hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, Isroil hukumati Misrning harbiy vakillari va xavfsizlik xizmati vakillari bilan ham yaqindan aloqalar o'rnatishdan manfaatdordir. Aynan Misr bilan aloqalar orqali Sinaydagi turli terroristic harakatlarga birgalikda qarshi kurashish yo'li orqali Isroil o'z hududiy yaxlitligi va chegaralarining daxlsizligini ta'minlashi mumkin hisoblanadi.

Oxirigi paytlarda Misrdagi Sinay bilan chegaradosh G'azo va Isroil hududlarida turli mojarolarning soni ortib bormoqda. Mazkur holatning vujudga kelishi bo'yicha Fransiyalik mutaxassis Anri Loran fikriga qaraganda : “Misr prezidenti M/Mursining o'z lavozimidan qo'pol ravishda olib tashlanganidan so'ng, Isroil va G'azo hududlari bilan chegaradosh Sinayda keskinliklar vujudga keldi. Bunda oxirigi keskinlik Sinay hududiga kelib tushgan raketa oqibatida 24 nafar politsiyachilarning o'limi bo'lgan. Shunday qilib, Mursining o'z lavozimidan ketishidan so'ng mazkur hududda 73 nafar huquqni muhofaza qilish xodimlari halok bo'ldi. Bu holatda turli islomiy harakatlar hukumat armiyasining musulmon birodarlar vakillari bilan bandligidan foydalanib, hozirda Sinay qonundan tashqari hududga aylangan”¹.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda Misrdagi Sinay hududining tinchligi va barqarorligini ta'minlashda 1979 yil imzolangan Kemp – Devid shartnomasi ham vaziyatni yanada qiyinlashtiradi. Isroil davlati buni juda yaxshi biladi, ammo Misr uchun mazkur cheklovlarning olib tashlanishi va Sinay hududining

¹ Египет больше не в состоянии обеспечить безопасность на Синае // <http://www.lefigaro.fr/international/2013/08/19/01003-20130819ARTFIG00231-l-egypte-n-est-plus-capable-d-assurer-la-securite-dans-le-sinai.php> – 07.05.2014.

harbiylashtirilishi uning kelajakda mazkur hududda muqum qolib ketishiga olib kelishi sababli Isroil bunga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 2011 yilda boshlangan mamlakatdagi inqirozni keyinchalik M.Mursi har tomonlama bartaraf etishga harakat qildi. Ammo bu vaziyatda uning olib borgan siyosatidan qoniqmagan va norozi bo'lgan xalq qarshi chiqdi hamda prezident o'z lavozimidan olib tashlandi.

Undan tashqari, Misr Arab Respublikasining hozirgi xalqaro munosabatlarning muhim aktori va xalqaro huquq subyekti sifatida o'z o'rniga ega bo'lishida quyidagi to'siqlar mavjud:

Birinchidan, Misr sobiq prezidenti M.Mursining juda qo'pol ravishda egallab turgan lavozimidan chetlatilishi ko'plab xalqaro aktorlar tomonidan qoralanmoqda va hattoki mazkur holat tufayli ayrim davlatlar Misrga nisbatan turli cheklov, sanksiyalarni amalda qo'llashmoqda.

Ikkinchidan, bugungi kunda vaqtinchalik hukumatning terroristik harakat sifatida tan olingan "Musulmon birodarlari"ning qatl etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa qator davlatlar tomonidan keskin qabul qilindi. Xususan, 2014 yilning 28 aprel oyida Misr sudi 683 "Musulmon birodarlari" harakatining vakillarini o'lim jazosiga mahkum etgan edi.

Uchinchidan, mamlakatdagi kompleks ijtimoiy – iqtisodiy, harbiy – siyosiy va xavfsizlik sohasidagi tizimning buzilganligi natijasida Misrning Sinay hududi va mamlakatning boshqa ichki hududlarida turli harakatlarning faollashuvi.

To'rtinchidan, Misr Arab Respublikasining zaiflashuvi boshqa davlatlarning mazkur mintaqaga kirib kelishi va ushbu mintaqada o'z pozitsiyalarini mustahkamlab olish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Misr Arab Respublikasi mintaqaviy va global darajada o'z o'rnini hamda mavqeini saqlab qolishi uchun yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish, mavjud muammolarni siyosiy yo'l va vositalar orqali hal etishi lozim.

Xulosa

Misr Arab Respublikasining 2011 yilga qadar tashqi siyosati J. A. Nosir, A.Sadat hamda X Muborakning shaxsiy xarakter, o'ziga hosligi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda olib borgan faoliyati Misr Arab Respublikasining jahon siyosati va xalqaro munosabatlardagi o'rni va rolini belgilab bergan. Bunda J.A.Nosir Misr tashqi siyosiy yo'nalishida nisbatan sovetparast yo'nalishi, A.Sadat g'arbparast bo'lgan bo'lsa, X.Muborak davrida esa Misr Arab respublikasi tashqi siyosati ham nisbatan g'arb yo'nalishida, ammo nisbatan mo'tadilroq bo'lgan. X.Muborak davrida MAR arab davlatlarining izolyatsiyasini yengib o'tib Fors ko'rfazi va Afrika mintaqasidagi davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yaxshilash orqali A.Sadat davrida imzolangan Kemp – Devid shartnomasidan so'ng yo'qotilgan mamlakatning mavqeini qaytarish, mintaq va jahon arenasidagi o'rni va rolini yana qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan edi. Shu bilan bir qatorda, Misrning Arab Davlatlari Ligasiga qaytish hamda unda o'ziga hos o'ringa ega bo'lishi arab dunyosi, Afrika qit'asi hamda jahon darajasida Misrning muhim aktor sifatida e'tirof etilishiga olib keldi.

X.Muborakning aniq yo'naltirilgan tashqi siyosati natijasida 1985 yillarga kelib Misr – Isroil tinchlik shartnomasiga amal qilishni saqlagan holda, muayyan darajada arab dunyosidagi izolyatsiyadan holi bo'lishga erishilgan edi. Buning natijasida, 1987 yilning noyabrida Ummonda o'tkazilgan butun arab sammitida maxsus rezolyutsiya qabul qilingan bo'lib, mazkur rezolyutsiya o'zida MARning Arab Davlatlari Ligasidagi a'zolicigini qayta tiklash va ADL a'zolarining MAR bilan aloqalarini rasman qayta tiklashini aks ettirgan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib B.G.Seyranyan arab dunyosiga nisbatan Misr tashqi siyosatini “Muborakning asl g'alabasi” deya nomlaydi¹. Chunki o'n yil oralig'ida MAR nafaqat o'zining oldingi nufuzini tiklab oldi, balki mintaqadagi yetakchi davlatlardan biri sifatida ham o'z o'rniga ega bo'lgan edi.

¹ Сейранян Б.Г. Хосни Мубарак. Начало политической деятельности. – М.: 1997. – С. 56.

Undan tashqari, XIX asr oxiri XX asr boshida Misrning boshqa arab dunyosi davlatlari bilan qanday munosabatlarda bo'lishidan qat'iy nazar, Qohira Yaqin Sharq diplomatiyasining o'ziga hos markazi ya'ni Misr Yaqin Sharqqa kirishda o'ziga hos darvoza bo'lgan. Shu bilan birga J.A.Nosir, A.Sadat hamda X.Muborak davridagi MAR, uning mintqa xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda hamda butunarab muammolarini hal etishda qanchalik muhim o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Misr Arab Respublikasi davlat boshqaruviga M.Mursining kelishi davlat tashqi siyosatida yangi tashqi siyosiy yo'nalishlarni vujudga keltirdi.

Shu bilan bir qatorda M.Mursi Misrning muqaddam juda ham tor tashqi siyosiy yo'nalishidan (Aqsh va G'arbiy Yevropa) voz kechib, xalqaro munosabatlarning turli aktarlari bilan o'zaro manfaatdor aloqalarni yo'lga qo'yishga intilgan va bunda Mursining BRIKS davlatlari, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Saudiya Arabistoniga tashriflari bejiz emas edi.

Rossiyadagi Misr elchisi Alaa El – Xadidi ta'kidlashicha, yangi davlat prezidenti M.Mursining tashqi siyosati kelajakda aniq bir kuchlarga emas, balki jahon hamjamiyatidagi turli aktarlarga asoslangan holda olib borilishi va bunda hech qachon muayyan bir xalqaro kuchga yo'nalganlik tendensiyasi kelajakda kuzatilmasligini ta'kidlagan edi.

Bugungi kunga kelib Misr Arab Respublikasining jahon siyosatidagi o'z o'rnini va rolga ega bo'lishida quyidagi takliflarni keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, Misrdagi inqiroziy holatni inobatga olgan holda, tez kunlarda konstitutsiyaviy ravishda va xalqning hohish – irodasini inobatga olgan holda qonuniy prezidentni saylash.

Ikkinchidan, Siyosiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish, ya'ni yangi konstitutsiyani ishlab chiqish va uni xalq referendumiga chiqarilib ijobiy holat kuzatilganida, mazkur konstitutsiyani amalda joriy etish.

Uchinchidan, mamlakatdagi kompleks ijtimoiy – iqtisodiy, harbiy – siyosiy va xavfsizlik sohasidagi tizimning buzilganligi natijasida Misrning Sinay hududi va mamlakatning boshqa ichki hududlarida turli harakatlarning faollashuvini oldini

olish maqsadida mamlakatning milliy xavfsizlik xizmati faoliyatini faollashtirish va asosiysi Isroil bilan tuzilgan Kemp – Devid shartnomasiga ko'ra Sinaydagi harbiy kontingentni joylashtirish bilan bog'liq cheklovlarni qayta ko'rib chiqilishi lozim.

To'rtinchidan, Misr Arab Respublikasining iqtisodiy salohiyati va barqarorligini, Braziliya, Rossiya, Xitoy bilan o'zaro hamkorlikda mamlakatda erkin savdo hududlarini tashkil etish.

Beshinchidan, Mamlakat ichkarisida tashqi kuchlar tomonidan o'z manfaatlarini lobbilashtirish harakatini to'xtatish uchun tashqi siyosatda aniq bir tashqi kuchga to'laligicha moyil bo'lmagan strategiyani qo'llash va mintaqaviy muvozanatni saqlab turish.

Oltinchidan, Misr Arab Respublikasining tashqi siyosati ham mintaqaviy ham xalqaro jihatdan ko'p vektorli va murakkab tizimni qamrab oladi hamda bunda mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligi va suverenitetini saqlash masalasi muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Rahbariy adabiyotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.**

1.1. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз — жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. — Т.17. — Т.:Ўзбекистон. 2005 й. — 240 б.

1.2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlo1, iqtisod, siyosat, mafkura. — Т.1. —Т.: O'zbekiston, 1996. —364 б.

1.3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. — Т.2. — Т.: O'zbekiston, 1996. — 380 б.

1.4. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. — Т.6. — Т.: O'zbekiston, 1998. — 429 б.

1.5. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби, — Т.5. — Т.:Ўзбекистон. 1997 й. — 248 б.

1.6. Karimov. I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. — Т.3. 1996. — 267 б.

1.7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Т.:O'zbekiston, 1997. —326 б.

1.8. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. —Т.10. — Т.: O'zbekiston, 2002. — 432 б.

1.9. Каримов И.А. Озод халқнинг улуғ байрами — Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 14 йиллигига бағишланган тантанали маросимида сўзлаган нутқ 2005 йил 31 август. // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари — олий қадрият. Асарлар тўплами. XIV жилд.

2. **Me'yoriy – huquqiy hujjatlar.**

2.10 Текст Конституционной декларации АРЕ от 30 марта 2011 г. //

<http://constitutions.ru/archives/7779>

2.11 Текст Конституции АРЕ (одобрена на референдуме 14 и 15 января 2014г.) // <http://constitutions.ru/archives/9553>

2.12 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2008. – 40 b.

3. Kitoblar, monografiya va maxsus adabiyotlar

3.13. Алмонд Г., Пауэлл Дж., Стром К., Далтон Р. Сравнительная политология сегодня: Мировой обзор: Учебное пособие / Сокр.пер. с англ. А.С. Богдановского, Л.А. Галкиной; под ред. М.В. Ильина, А.Ю. Мельвиля. М.: Аспект Пресс, 2002. – 546 с.

3.14. Ахмедов В. Роль армии в политических системах арабских государств Ближнего Востока. -М., Институт Изучения Ближнего Востока., 2009. – 214 с.

3.15. Егорин А.З. Египет нашего времени. – М.: ИВ РАН, 1998. – 328 с.

3.16. Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. Т.: Академия. 2007. – 287 б.

3.17. Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. Ш.Ёвқочев. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – 212 с.

3.18. Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие/ Под ред. С.А.Ланцова, В.А.Ачкасова. – СПб.:Питер, 2007. – 307 с.

3.19. Мирқосимов С., Рахимова М. Дипломатик ва консуллик хизмати: саволлар ва жавоблар. – Т.: Академия, 2009. – 189 б.

3.20. Общая и прикладная политология: Учебное пособие. / Под общей редакцией В.И. Жукова, Б.И. Краснова. – М.: МГСУ; Изд-во Союз, 1997. – 389 с.

3.21. Панфиленко Э.Н. Некоторые аспекты судано – египетских отношений.//Арабский мир в конце XX века. М. 1996г. – 274 с.

3.22. Политология: Ўқув қўлланма / муаллифлар гуруҳи. проф. И.Эргашев таҳрири остида. – Т.:Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 267 б.

3.23. Рифаат А. Экономическая политика и сдвиги в промышленном производстве (на примере ряда арабских стран) // Ближний Восток и современность. Вып. 13. – М.: ИИИиБВ, 2002. – 209 с.

3.24. Сейранян Б.Г. Хосни Мубарак. Начало политической деятельности. – М.: 1997. – 292 с.

3.25. Титоренко В.Е. Формирование внешней политики Египта после Г.А. Насера (1970 - 1993 гг.). – М.: 1994. – 198 с.

3.26. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. / Нашр учун масъул илмий – ижодий гуруҳ: М.Комилов, У.Ғафуров, М.Амонбоев; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: О'qituvchi. НМИУ, 2013. – 80 б.

3.27. Фармонов Р., Эргашев И., Хабибуллаева Д. ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. Дарслик. Т.: Наврўз нашриёти, 2005й. – 358 б.

3.28. Халидов А. Ал – Азхар // Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 561 с.

3.29. Шарапова С., Каримова Н., Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран востока и запада. – Т.: Фан. 2006. – 297 б.

3.30. Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспектлари. – Т.:Математика ва ахборот технологиялар институти босмахонаси, 2009. – 249 б.

3.31. Юрченко В.П. Египет: проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.) – М., 2003, – 208 с.

3.32. Arthur Goldschmidt Jr. Modern Egypt. The Formation of a Nation State. – N.Y.: Westview Press, 2004. – 175 p.

3.33. S.Otamurodov va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma, – T.: 1999 y. – 312 b.

4. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

4.34. Гафуров С.М. Форс Кўрфази араб давлатлари ва Ўзбекистон Республикасининг минтақавий ва умумжаҳон хавфсизлигини таъминлашдаги мавқеи.// сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2002. – 34 б.

4.35. Мамед – Заде Первин Ниязи оглы. Роль и место Египта в системе международных отношений на Арабском Востоке на рубеже XX – XXI вв. : Дис. ... канд. ист. наук : 07.00.15 Москва, 2005 267 с. РГБ ОД, 61:05-7/1136

4.36. Осман А.А. Влияние исламских политических партий и движений на демократический процесс в арабских странах Африки: Автореф. дис...канд. полит. наук. Санкт-Петербург. 2002. – 21 с.

5. Gazeta va jurnal maqolalari va davriy nashrlar

5.37. Мамед – заде П. Партнерство ради воды // Азия и Африка сегодня, 2002. № 1, – 148 с.

5.38. Cantori L. Arab Republic of Egypt // Delury G.E. (Ed.) World Encyclopedia of Political Systems and Parties. – 2nd edition. – Vol. I (Afghanistan – Luxemburg). – New York (U.S.A.), Oxford (England): Facts on File Publications, 1987. – 313 p.

5.39. Hudson M. After the Gulf War: Prospects for Democratization in the Arab World // The Middle East Journal, 15, no.1. – Summer 1991. – 426 p.

5.40. Maddy – Weitzman B. Maghreb Regime Scenarios. – The Middle East Review on international Affairs. – Volume 10, No. 3, Article 8 – 10. – September 2006. – 475 p.

6. Internetning axborot va tahliliy manbalari

- 6.41. Африканский союз // top.rbc.ru/tags/?tag...%F1%EE%FE%E7 . – .02.04.2014
- 6.42. Внешняя политика Египта при Мухаммеде Мурси // <http://voprosik.net/vneshnyaya-politika-egipta-pri-muxammede-mursi/> – 13.04.2014.
- 6.43. Внешняя политика // <http://all-politologija.ru/ru/vneshnyaya-politika-gosudarstva-kak-otobrazhenie-ego-nacionalnyx-interesov-sushhnost-vidy-nacionalnye-interesy> – 19.02.2014.
- 6.44. Внешняя политика Египта станет более открытой // http://ria.ru/arab_eg/20120702/689956149.html#13978991790253&message=resize&relto=register&action=addClass&value=registration – 01.04.2014.
- 6.45. Внешняя торговля Египта // <http://restinworld.ru/stories/egypt/15544/1.html> – 02.03.2014.
- 6.46. Дипломатический словарь. — М.: Государственное издательство политической литературы. А. Я. Вышинский, С. А. Лозовский. 1948. // http://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_diplomatic/311/ВЕНСКИЙ. – 18.12.20013.
- 6.47. Египет - Обзор экономики Египта // http://www.ved.gov.ru/exportcountries/eg/about_eg/eco_eg/ – 05.03.2014.
- 6.48. Константин Черемных «братья-мусульмане»: от начала до конца // <http://kavkazpress.ru/archives/4613> – 06.01.2014.
- 6.49. Мохова И. Новый режим в Египте: возможна ли смена внешней политики. Независимая газета. 2012. 1 октября. // http://www.ng.ru/courier/2012-10-01/9_egypt.html – 05.01.2014.
- 6.50. Ольга Кулькова/ К.и.н., с.н.с. Центра изучения российско – африканских отношений и внешней политики стран Африки Института Африки РАН, сотрудник Центра проблем безопасности и развития МГУ.

Африка и ЕС: в преддверии четвертого совместного саммита // [http://russiancouncil.ru/ inner/?id_4=3438](http://russiancouncil.ru/inner/?id_4=3438) – 03.04.2014.

6.51. Основные направления внешней политики Египта: Региональный аспект // [http://cyberleninka.ru/article/ n/osnovnye-napravleniya-vneshney-politiki-egipta-regionalnyy-aspekt](http://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-napravleniya-vneshney-politiki-egipta-regionalnyy-aspekt) – 26.02.2014.

6.52. Семен Бельман. Война на истощение // <http://jew-observer.com/eto-bylo-bylo/vojna-na-istoshhenie/> – 03.02.2014

6.53. Making a Difference: Allison's Three Models of Foreign Policy Analysis // [http://www.academia.edu/592889/ Making_a_Difference_Allisons_Three_Models_of_Foreign_Policy_Analysis](http://www.academia.edu/592889/Making_a_Difference_Allisons_Three_Models_of_Foreign_Policy_Analysis) – 29.12.2013.

6.54. Kissinger H., Brodie B. Bureaucracy. Politics and Strategy. Los Angeles, 1968. p. 81. // <http://search.library.wisc.edu/catalog/ocm00082456> – 14.02.2014.

6.55. Slap to a Man's Pride Set Off Tumult in Tunisia // http://www.nytimes.com/2011/01/22/world/africa/22sidi.html?pagewanted=1&_r=2&src=twrhp& – 17.12.2013.

6.56. Tashqi siyosat va xalqaro siyosiy munosabatlar // http://arxiv.uz/files/53300_tashqi-siyosat-va-xalqaro-siyosiy-munosabatlar.html – 22.03.2013.

6.57. Will the Arab revolutions spread? The Middle East Channel // http://mideast.foreignpolicy.com/posts/2011/01/26/will_the_arab_revolutions_spread – 11.11.2013.

6.58. Yemenis square off in rival 'Day of Rage' protests // [http://www.arabnews.com/middleeast/ article 250370.ece](http://www.arabnews.com/middleeast/article_250370.ece) – 17.12.2013